

Pensiya ta'minoti tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish

MUNDARIJA		Betlar
KIRISH		3
I BOB.	DAVLATNING IJTIMOYIY HIMOYATIZIMIDA PENSIYA TA'MINOTINING O'RNI VA ASOSIY VAZIFALARI	13
1.1.	Pensiya ta'minotini Davlat byudjetining ijtimoiy himoya funktsiyasi sifatida namoyon bo'lishi	13
1.2.	Fuqarolarning pensiya ta'minotini nazariy jihatlari	22
	I BOB bo'yicha xulosa	28
II BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING HOZIRGI HOLATINING TAHLILI	31
2.1.	Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining me'yoriy-huquqiy bazasining tahlili	31
2.2.	O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirishning hozirgi holati	43
2.3.	O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish holati	54
	II BOB bo'yicha xulosa	61
III BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	63
3.1.	Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish tajribalari	63
3.2.	O'zbekistonda pensiya tizimini huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari	73
	III BOB bo'yicha xulosa	79
XULOSA		81
ADABIYOTLAR RO'YXATI		85
ILOVALAR		92

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbek modeli sifatida tan olingan mustaqil taraqqiyot yo'limizning negizida mashhur besh tamoyildan biri – kuchli ijtimoiy siyosat olib borish ekani bugun o'zining yuksak samaralarini bermoqda. Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida mamlakatimiz iqtisodiyotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadigan oqibatlarni imkon qadar kamaytirish, ko'p bolalik va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, etim va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlari-dek, “..O'tgan yili ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. Respublikamizda 2011 yilda ish haqi 20,2 foizga, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi”¹.

Mamlakatda pensiya tizimini isloh qilish, uning huquqiy asoslarini respublikamizdagi demografik sharoitga moslashtirish lozim. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va bo'limlarining fuqarolarni pensiya ta'minotini amalga oshirish bilan bog'liq huquq va majburiyatlarini takomillashtirish talab etiladi. Ushbu yo'nalishdagi tadbirlar mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlash eng muhim ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Mamlakatimizda fuqarolarga davlat pensiyasini to'lash tartibini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb masala sanaladi va tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Shu sababli tadqiqot ishimizga «Pensiya ta'minoti tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish» mavzusi tanlandi.

¹Karimov I. A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: “O'zbekiston”. 2012. –B.36.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. O'zbekistonda pensiya ta'minotining huquqiy jihatlarini o'rganish tadqiqot ishining ob'ekti hisoblanadi. Fuqarolarning pensiya ta'minoti jarayonlari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini huquqiy asoslarini ilmiy o'rganish va zamonaviy talablar asosida uni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni taqdim etishdan iborat. Muallif qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilishga intilgan:

- Davlat budjetining ijtimoiy himoya funksiyasini o'rganish;
- pensiya ta'minoti tizimining nazariy jihatlarini o'rganish;
- pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy bazasini o'rganish;
- O'zbekistonda fuqarolarning pensiya ta'minoti jarayonlarini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish;
- xorijiy davlatlarda pensiya ta'minotining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar kelgusida mamlakatimizda pensiya tizimining huquqiy asoslarini rivojlantirishga olib kelishi mumkin. Tadqiqotning asosiy masalalari:

- ✓ ijtimoiy himoya tizimida pensiya tizimining etakchi o'rni dalillar bilan ilmiy asoslangan;
- ✓ fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, fuqarolarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning huquqiy poydevori hamda moliyaviy ta'minoti barpo etilganligi ilmiy asoslangan;

- ✓ iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;
- ✓ fuqarolarni jinsidan qat'iy nazar pensiya jamg'armalari daromadini shakllantirish va mablag'lardan foydalanishda teng ishtirokini ta'minlash bo'yicha takliflar berilgan.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasida I.Karimov, Q.Abduraxmonov, M. Abdullaev, U.Burxonov, A.Vaxabov, A.Vahobov, D.Vahobov, N.Jumaev, Z.Karimova, T.Malikov, S.Mexmonov, M.Mirzamahmudov, N.Haydarov, G.Qosimova, A.Hayitov¹ kabi iqtisodchilarni Davlat budjetining ijtimoiy himoya xarajatlarini moliyalashtirish, ijtimoiy siyosat yunalishlari, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy xizmat, pensiya ta'minoti xarajatlarini o'rgangan mualliflar sifatida ko'rsatish mumkin. Aholini ijtimoiy himoyalash, pensiya ta'minotining tashkiliy masalalari, pensiya tizimi bilan bog'liq bo'lgan masalalar L.D.Androsova, V.V.Karchevskiy, S.V.Kadomtseva, F.M.Kurshaeva, E.N.Lisenko, E.E.Smirnova, A.S.Neshchitoy, L.P.Okuneva, G.B.Polyak² va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan. Tanlangan mavzuga bevosita aloqador masalada tadqiqot ishlari o'rganildi.

¹Abduraxmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. "Mehnat". 2004.-535b., Abduraxmonov Q. Modernizatsiya jarayonida aholi daromadlarini oshirish. // Jamiyat va boshqaruv. 2005. 3-son. 66-71 b., Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. 8-12b., Vaxabov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. T.: Sharq. 2003. -320 b., Vaxabov D.R. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya tizimini takomillashtirishning yo'nalishlari" mavzusi bo'yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan desertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2012 -22 b, Jumaev N., Burxonov U. Moliyaning dolzarb muammolari. Monografiya. -T.: «Yangi asr avlodi». 2003. 385b., 133. Malikov T.S., Xaydarov X.N. Byudjet daromdlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2007.-245 b., Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. -556 b.; Malikov T.S., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2010. 660 b., Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b., Mexmonov. S.U. Byudjet xisobi. O'quv ko'llanma. - T.: "Fan va texnologiya". 2012. - 352 s., Kosimova G. A. Reforma pensionnix sistem: Tseli i perspektivi. // Rossiyskiy straxovoy byulleten. Moskva. 2000. avgust. 44-45s., Qosimova G.A., Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2009. 212 b., Xayitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Adolat". 2009. -172 b.

² Kadomtseva S. Sotsialnaya politika i naselenie. // Ekonomist. 2006. №7. 56-58 s., Kadomtseva S.V. Gosudarstvennie finansi. Uchebnoe posobie.- M.: «INFRA -M». 2010. -352 s., Karchevskiy V.V., Androsova L.D., Okuneva L.P., Smirnova E.E. Tselevie byudjetnie i vnebyudjetnie fondi. Uchebnoe posobie. – M.: "Vuzovskiy uchebnyk". 2011. -224 s., Kurshaeva F.M. Institutsionalnie aspekti reformirovaniya pensionnoy sistemi Rossiyskoy Federatsii /Avtoreferat diss. na sois. uchen. stepeni k.e.n. – Nalchik, 2003.-20str., Lisenko E.N. Sovershenstvovanie formirovaniya i investirovaniya pensionnix nakopleniy v Rossiyskoy Federatsii /Avtoreferat diss. na sois. uchen. stepeni k.e.n. – M.: 2005. – 18 s., Polyak G.B. Finansi. Uchebnyk. -M.:

Vaxabov Davron Rustamovichning “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya tizimini takomillashtirishning yo’nalishlari” mavzusi bo’yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiyasining maqsadi – iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya ta’minoti tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ishining predmetini – O’zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromadlarini shakllantirish va uning mablag’laridan foydalanish jarayonida sodir bo’ladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi. Tadqiqot ishining ob’ekti sifatida O’zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi faoliyati tanlangan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida mamlakatda pensiya tizimini institutsional-huquqiy asoslarini takomillashtirish, pensiya jamg’armasi daromadlari manbaini barqarorlashtirish, pensiya imtiyozlarini qisqartirish, jamg’ariladigan pensiya tizimiga o’tishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi o’rganilgan. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi turmush darajasini izchillik bilan oshirish va turmush sifatini yaxshilash pensiya tizimini moliyalashtirish holatini baholash, takomillashtirish va uni moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan bog’liq muammolar kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan pensiya tizimi huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qonunlar, qonunosti hujjatlarni ishlab chiqishda, Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining o’rta muddatli moliyaviy barqaror strategik rivojlanish kontseptsiyasi va maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanishga karatilgan takliflar berilgan.

YuNITI-DANA. 2008. -639s., Polyak G.B. Gosudarstvennie i munitsipalnie finansi. Uchebnoe posobie.- M.: «YuNITI-DANA». 2008. -375 s., Polyak G.B. Byudjetnaya sistema Rossii. Uchebnik.- M.: «YuNITI-DANA». 2011. -703 s., Neshchitoy A.S. Finansi. Uchebnik. Moskva. Dashkov i K. 2008. -512 str., Neshchitoy A.S. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya "Dashkov i K". 2012. - 336 s.

I.Tursunov, Z.Shoyimxonovning “Ijtimoiy ta’minot huquqi” nomli darslikda¹ fuqarolarga pensiya to’lash jarayonidagi pul mablag’larining shakllanishi va sarflanishining maqsadli yo’nalishlari saqlanib qolgan holda, O’zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga kiritilganligi, mablag’larni yig’ish va ularning to’liq kelib tushishini nazorat qilish vazifasi O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi organlari zimmasiga yuklatilganligi tadqiq qilingan. Darslikda fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish yo’llaridan biri pensiya ta’minoti ekanligi, pensiya to’lash tartibini soddalashtirish, fuqarolarga pensiya to’lashni rasmiylashtirishda engilliklar yaratish muhimligi tahlil qilingan. Shuningdek xorijiy mamlakatlarda pensiya ta’mini tizimi faoliyati ko’rsatilgan.

Qosimova Gulyora Axmatovnaning “Ijtimoiy siyosatning asosiy yo’nalishlari» nomli monografiyasida respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning mohiyati va uning o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, unda ijtimoiy siyosatning vazifalari, asosiy yo’nalishlari, pensiya va nafaqalarning Davlat budjetidan amalga oshiriladigan moliyaviy ta’minoti kabi masalalar qamrab olingan. Ijtimoiy siyosat - aholining turmush darajasini, «inson kapital»ini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishni tashkil etish munosabatlari bo’yicha davlat siyosatining bir bo’g’ini ekanligi ko’rsatilgan. Ijtimoiy siyosat fuqarolarning konstitutsion huquqlari asosida amalga oshirilishi, moliyaviy dasturlar, me’yorlar, normativlar, standartlar, qonunlar, grantlar ijtimoiy siyosatning amalga oshirish vositalari bo’lib hisoblanishi o’rganilgan.

Respublikamizda milliy boylikning bir qismi davlat qo’lida bo’lganligi sababli, shu mablag’lar hisobidan aholini ijtimoiy himoyasini ta’minlaydi, aholi daromadlarini oshiriladi. Lekin ijtimoiy siyosat hozirgi real vaziyatni, albatta hisobga olishi kerak. Chunki ijtimoiy siyosat ijtimoiy tizimdagi o’zgarishlarga moslashuvchan bo’lgandagina bunday siyosat faol bo’ladi. Shu bois malakali kadrlar tayyorlash masalalariga, pensiya ta’minotiga, inflyatsiya ta’siridan aholi

¹ Tursunov I., Shoyimxonov Z. Ijtimoiy ta’minot huquqi. Darslik. -T.: “TDYuP”. 2003.- 230 b.

xarid qobiliyatini himoya qilish, narx oshishidan aholi ko'radigan zararni aholi daromadini oshirish orqali qoplash mumkin.

Istiqlol yo'lining dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini mo'tadillashtirish maqsadida aholini ijtimoiy hayotning davlat yo'li bilan boshqarishning ko'pdan-ko'p usullari va uslublaridan foydalanildi. Jumladan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar miqdori oshirildi, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar shaklidagi to'lovlarni joriy qilish usullari keng qo'llanildi. Eng avvalo, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida mamlakat iqtisodiyotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadigan og'ir oqibatlarini imkon qadar kamaytirish, ijtimoiy muhofazaga birinchi galda muhtoj bo'lgan aholi toifalari — ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, etimlar, nogironlar, talabalar va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish masalalari o'rganilgan.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida ijtimoiy siyosat masalasi turadi. Bu siyosatning zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida aholi boshiga tushishi mumkin bo'lgan mushkullik-larni engillashtirish bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, har qanday jamiyatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki, ular ob'ektiv sabablarga ko'ra (yoshi, sog'lig'ining yomonligi, mamlakatdagi ishsizlik darajasi) ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shuning uchun ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga olishi zarur, ya'ni yaratilgan milliy daromadning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanishi kerakligiga e'tibor qaratilgan.

Vahobov Abdurahim Vosiqovichning “Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar» nomli monografiyasida O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida faol va manzilli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, budjetdan tashqari ijtimoiy fondlar tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va ulardan samarali foydalanishga e'tibor karatilgan.

O'zbekistonda shakllangan bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi islohotlarning o'ziga xos "O'zbek modeli"ning asosiy tamoyilidir. Kuchli, maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va aholini ijtimoiy himoyalashning ta'sirchan mexanizmini yaratish mamlakatda bozor iqtisodiyotini shakllantirishning va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishishning omili bo'ladi. Iqtisodiy islohotlar chuqurlashib, iqtisodiyot barqarorlashib borgan sari asta-sekin aholini yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolat berish va aholining faqat muxtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi yaratilishiga bosqichma-bosqich o'tildi. Aholining hamma qatlamlarini yoppasiga ijtimoiy himoyalash tizimini asta-sekin turli ijtimoiy qatlam va guruhlarga tabaqalashtirish bilan almashtirildi, aholini adresli ijtimoiy ximoyalash tizimi shakllandi. Bu tizimga budjet mablag'lari hisobidan aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlariga nafaqa to'lash, qonuniy ravishda belgilangan eng kam miqdoridagi ish haqi, pensiya to'lash uchun sarflash, aholining muayyan toifasiga bepul va ijtimoiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash, qator ijtimoiy xizmatlarni maksimal darajada iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri etkazib berish ko'rsatilgan. Mazkur monografiyada ijtimoiy fondlarning manzilli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi funktsional roli nazariy jihatdan ilmiy asoslangan, ijtimoiy fondlarning vujudga kelish sabablari va pensiya ta'minotining ob'ektiv zaruriyati tadqiq qilingan. O'zbekistonda ijtimoiy fondlar mablag'larining ishlatilish xususiyatlari tahlil etilib, ularning funktsional vazifalaridan kelib chiqqan xolda, fondlar mablag'laridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chikilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini himoyalash vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari ilmiy izlanishning

nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqot ishida guruhlash, tahlil, monografik kuzatish uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Pensiya ta'minotining huquqiy-me'yoriy hujjatlarini takomillashtirish ishlarida tadqiqot ishining xulosa, takliflardan foydalanish mumkin. Budjetdan tashqari Pensiya fondining daromadlari va xarajatlarini boshqarishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarni yangilashda ishlatiladi. Tadqiqot ishi materiallaridan oliy o'quv yurtlarida mavzuga oid fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish imkoniyati mavjud.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- ✓ O'zbekiston Respublikasida fuqarolarni ijtimoiy himoyalash tizimi va pensiya ta'minotining huquqiy asoslari ilmiy o'rganildi;
- ✓ pensiya tizimini isloh etish yo'llari va moliyalashtirish manbalarining chet el tajribalari ilmiy o'rganildi;
- ✓ jaxon amaliyotidagi pensiya islohotlari yo'nalishlari ilmiy asoslandi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqildi;
- ✓ pensiya ta'minoti tizimining huquqiy bazasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishining hajmi 92 betdan iborat, tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan tashkil topgan, 8 ta rasm, 5 ta jadval tayyorlangan. Tadqiqot ishining kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi berilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti, tadqiqot ishining nazariy-amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiliklari hamda tadqiqot ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko'rsatilgan.

Tadqiqot ishining «Davlatning ijtimoiy himoya tizimida pensiya ta'minotining o'рни va asosiy vazifalari» nomli birinchi bobida pensiya ta'minoti bilan Davlat budjetining ijtimoiy himoya funksiyasi bog'liq holda yoritib berilgan. Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining nazariy jihatlari

o'rganilgan. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimining shakllantirish tajribalari o'rganilgan.

Tadqiqot ishining «O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minoti tizimining hozirgi holatining tahlili» nomli ikkinchi bobda fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining me'yoriy-huquqiy bazasining tahlili ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirishning hozirgi holati tahlil qilingan. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish yo'llari ko'rsatilgan.

Tadqiqot ishining «O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish masalalari» nomli yakuniy bobda O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Respublikamizda pensiya ta'minotini rivojlantirish istiqbollari aniqlangan.

Tadqiqot ishining yakunida O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

I BOB. DAVLATNING IJTIMOY HIMOYA TIZIMIDA PENSIYA TA'MINOTINING O'RNI VA ASOSIY VAZIFALARI

1.1.Pensiya ta'minotini Davlat budjetining ijtimoiy himoya funksiyasi sifatida namoyon bo'lishi

Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan, besh tamoyilga asoslangan va amaliyotga izchil joriy etilayotgan milliy taraqqiyot modeli mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. «Ijtimoiy himoya masalasi – bu faqat davlat va hokimiyat tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot va xayriya muassasalarining ishi bo'lib qolmasligi lozim. "Ijtimoiy" degan so'zning ko'pchilikka, jamoatchilikka mansub degan ma'noni ifoda etishini inobatga oladigan bo'lsak, bu o'ta muhim masala jamiyatimizning, barchamizning burchimizga aylanishi darkor»¹.

Respublikamizda ijtimoiy siyosatni shakllantirish masalasi yoki iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish dasturini hayotga tatbiq etish bo'ladimi, ijtimoiy soha tizimida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish bo'ladimi – bularning barchasida biz uchun faqat bitta masala eng ustun va hal qiluvchi o'rinda turadi, u ham bo'lsa, inson manfaatlarining ustuvorligidir. Ayniqsa, keksalarning turmush darajasi va hayot sifatini izchil va bosqichma-bosqich yuksaltirish – bizning asosiy maqsadimizdir. Aholi turmush darajasi mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mos keluvchi hayot sharoitlarining yig'indisidir. Aholi turmush darajasini oshirishda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- ⇒ kutilayotgan umr ko'rish yoshi;
- ⇒ hayot (turmush) tarzi;
- ⇒ YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi;
- ⇒ shaxsiy baxt tushunchasi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish — ustivor vazifa. //Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil, 8 dekabr.

- ⇒ hayot kechirishda daromadning minimal darajaga muvofiqligi;
- ⇒ oilaning jamiyatda egallagan mavqei;
- ⇒ salomatlik.

Davlatning taqsimlash tizimida chora-tadbirlar tartibini tanlanishi mamlakat pensiya tizimida vujudga kelgan holat, demografik vaziyat tavsifi, jamiyatda amal qilayotgan adolat tushunchalari, siyosiy qarashlarni belgilab beradi.

«Pensiya» kategoriya sifatida pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirish va keksayganda chog'ida undan foydalanish shakl va usullari yig'indisini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. «Pensiya - uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovidir»¹. Fuqaroning yashash joyi - turar joy, kvartira, xizmat turar joyi, ixtisoslashtirilgan uylar (yotoqxonalar, pansionat, yolg'iz keksalar uchun maxsus uy, nogironlar, faxriylar uchun internat uy va boshqalar), shuningdek pensiya uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs ijaraga olish shartnomasi, ijara shartnomasi yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha mulkdor sifatida doimiy yashaydigan (doimiy ro'yxatdan o'tgan) boshqa turar joy, doimiy yashash joyi mavjud bo'lmagan (doimiy ro'yxatdan o'tmagan) taqdirda - vaqtincha yashash (vaqtincha ro'yxatdan o'tish) joyidir.

Pensiya tizimining samaradorligi uning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga muvofiqligini va inson omilini rivojlantirish, takror ishlab chiqarish jarayonining davlat tomonidan tartibga solish darajasini aks ettiradi. Pensiya tizimining samaradorligi mablag'larni jalb qilish va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida mablag'larni ishlatilish darajasini ifoda etadi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarni bajarishi uchun moliyaviy resurslar etarli bo'lishi kerak. Bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi. Davlatlarda

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-son Qarori.

vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda ahamiyat kasb etadi. Xorijiy davlatlar uzoq muddatli istiqbolda pensiya tizimi barqarorligini yaxshilashga yo'naltirilgan bir qator muhim o'zgarishlar qildilar.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, oxirgi yillarda kuzatilayotgan YaIMning yuksak o'sish sur'atlari, makroiqtisodiy rivojlanish natijalari mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlanishining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida mamlakat fuqarolarining pensiyasini belgilovchi asosiy omil sifatida davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalaridagi pul mablag'lari e'tiborga olindi.

Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Davlat amalga oshirayotgan, aholining barcha qatlamlari manfaatlariga daxldor bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy soha orqali namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan "...Xalq farovonligini, barqaror, muttasil oshirishni, aholini ijtimoiy himoyalashni ustuvor yo'nalish qilib belgilab, shu yo'l bilan islohotlar faqat inson manfaatlarini ko'zlab, uning farovonligi uchun amalga oshiriladi"¹.

Davlat tomonidan xalq farovonligini, barqaror, muttasil oshirishni, aholini ijtimoiy himoyalashni ustuvor yo'nalish qilib belgilab, shu yo'l bilan islohotlar faqat inson manfaatlarini ko'zlab, uning manfaati uchun amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar respublikamizda joriy qilindi.

"Davlat is'temoli O'zbekistonda faqat ishlab chiqarishni investitsiyalash bilan emas, balki ijtimoiy sohani ta'minlash bilan ham bog'liq. Ijtimoiy soha uchun zarur resurslarni davlat qo'lida jamlash va ularni adolatli taqsimlashi muhim. Shu sababli Davlat budjeti va budjetdan tashqari pul jamg'armasida

¹Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". - T.: "O'zbekiston", 1999. -B.42.

ijtimoiy soha xarajatlarining hissasi katta”¹.

Pensiya jamg'armalaridagi fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg'arma badallari ularni davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi, muayyan jamg'arma tashkil etgan aholi toifalariga to'lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari sifatida ta'riflash imkonini beradi. Mamlakatimizda mustaqillik qaror topganidan keyingi yillarda fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan muayyan ishlarning huquqiy poydevori barpo etildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim qariganda, mehnatga yaroqsiz bo'lib qolganida, shuningdek, boquvchisidan judo bo'lganida hamda qonunda ko'zda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olishga haqli, degan qoidaga muvofiq fuqarolarni xilma-xil shakldagi ijtimoiy himoyalash kafolatlab qo'yildi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, turli markazlashgan va markazlashmagan jamg'armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag'lari jamg'armasi - Davlat budjetini tuzish va ijro qilish yo'li bilan ta'minlanadi. Mustaqillik yillarida murakkab iqtisodiy ahvol yuzaga kelganiga qaramay, O'zbekistonda aholi uchun eng muhim ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida zarur mablag'lar izlab topildi.

¹Voxabov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. Monografiya. -T.: «Moliya». 2002. –B. 143.

1.1.1.-jadval.


2010-2012 yilgai O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijtimoiy maqsaddagi xarajatlarining tahlili¹
(mlrd. so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil			2011 yil			2012 yil		
		miqdori	budjetga nisbatan % da	YaIM ga nisbatan % da	miqdori	budjetga nisbatan % da	YaIM ga nisbatan % da	miqdori	budjetga nisbatan % da	YaIM ga nisbatan % da
1.	YaIM	61465,1	-	100	81253,6	-	100	95760	-	100
2.	Davlat budjeti xarajatlari	13732,5	100	21,6	16991,1	100	20,9	21571,7	100	21,5
3.	Davlat budjetining ijtimoiy maqsaddagi xarajatlari	8 113	59,1	13,2	10112,3	59,5	12,4	12513,2	59,5	13,1
	jumladan:									
3.1.	Ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari	6642	48,4	10,8	8529,7	50,2	10,5	10614,2	49,2	11,1
3.2.	Aholini ijtimoiy qo'llab- quvvatlash xarajatlari	1 471	10,7	2,4	1582,6	9,3	1,9	1899	8,8	2,0

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda 1245-son Qarori, 2010 yil 24 dekabrda 1449-son Qarori, 2011 yil 30 dekabrda 1675-son Qarori.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining ijtimoiy maqsaddagi xarajatlarining tahlili berilgan. Respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy-madaniy soha va fuqarolarni ijtimoiy himoyalash xarajatlari 2010 yilda 8 113,1 mlrd. so'm., jami budget xarajatlarining 59,1 foiziga teng. 2011 yilda 10 112,3 mlrd. so'm., jami budget xarajatlarining 59,5 foiziga ko'tarildi. 2012 yilda 12 513,2 mlrd. so'm., jami budget xarajatlarining 59,5 foizga tenglashdi. Shundan, aholini ijtimoiy qo'llab - quvvatlash xarajatlari 2010 yilda 1 471,7 mlrd. so'm., jami budget xarajatlarining 10,7 foiziga teng. 2011 yilda 1 582,6 mlrd. so'm., jami budget xarajatlarining 9,3 foiziga tushdi, 2012 yilda 1 899,6 mlrd. so'm., jami budget xarajatlarining 8,8 foizga tushdi. Budget xarajatlarini moliyalashtirish mamlakatimizda 2012-2013 yillarda qabul qilingan iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarning chora-tadbirlariga ham bog'liq. 2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish bo'ldi, “2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi”ni so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iborat bo'ldi. “Ijtimoiy investitsiya”lar inson kapitaliga investitsiyalar tushunchasiga nisbatan keng tushunchadir. Ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, milliy boylikni maqsadli taqsimlash, fuqarolarga ta'lim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish, budgetdan fuqarolarga transfertlar berish ijtimoiy sohaga qo'yilmalar, deb tushuniladi.

Davlat budjeti mablag'larning salmoqli qismi ijtimoiy-madaniy tadbirlarga, iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirildi, bu davlatning ijtimoiy funksiyasini bajarilishini ta'minladi. Davlat budgetining ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlari yillar davomida o'sib borayotganligini ko'rish mumkin. Ko'pgina moliya, davlat moliyasiga oid iqtisodiy adabiyotlarda davlat budgetining beshta asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatiladi (1-rasm).



1.1.1.-rasm. Davlat budjetining funktsiyalari¹

«Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, «davlat xarajatlarini oshirish to'g'risidagi ovozlar ham tobora ko'payib bormoqda. Ko'pchilik analitiklar hukumat xarajatlarining o'sishi mavjud ijtimoiy muammolardan xalos etmaydi va farovonlik darajasini oshirmaydi, deb hisoblaydilar. Aksincha, davlat xarajatlarining o'sishi tufayli yuzaga keladigan davlat budjetidagi taqchillik va katta davlat qarzi, salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu xulosalar o'tgan asr oxirida davlatning fiskal iqtisodiy rolini qayta o'zgartirishga majbur etdi. Rivojlangan mamlakatlarda budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, sog'liqni saqlash, ta'lim muassasalari, ijtimoiy himoya sohasini moliyalashtirish jarayonlari faollashdi»².

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakl-larni qo'llashni talab etdi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, davlatning maqsadli jamg'armalari tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan YaIMning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi.

Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, «Davlat budjeti xarajatlari YaIMga

¹Polyak G.B. Finansi. Uchebnik. -Moskva.: YuNITI-DANA. 2008. –S 139.

²Axmedjanov A. Gosudarstvennie rasxodi: uvelichivat ili sokrashchat? // Ekonomicheskoe obozrenie. – Tashkent.2009. № 10.-S17.

nisbatan quyidagi ulushga ega. Ya'ni 1991 yilda 52,7 foizni, 1994 yilda 33,3 foizni, 2000 yilda 29,0 foizni, 2005 yilda esa 21,5 foizni, 2010 yilda 21,6 foizni, 2012 yilda 21,5 foizni tashkil etdi oshgan"¹. YaIMga nisbatan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari 2008 yilda 7,8 foizni, 2009 yilda esa 7,8 foizni, 2010 yilda 7,9 foizni, 2011 yilda 8,0 foizni, 2012 yilda 8,3 foizni tashkil etdi. YaIMga nisbatan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari 2008 yilda 8,1 foizni, 2009 yilda esa 8,0 foizni, 2010 yilda 8,0 foizni, 2011 yilda 8,0 foizni, 2012 yilda 8,1 foizni tashkil etdi.

Xorijiy davlatlarda hukumatning «kengaytirilgan xarajatlari»² oshib bormoqda. «Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayoni 1950 yillarga kelib keng quloch yoydi, barcha xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy xarajatlarning YaIM va milliy daromadagi ulushining o'sishi kuzatildi. G'arbiy Evropa mamlakatlari budjetida ijtimoiy xarajatlarining umumiy hajmi o'rtacha budjet xarajatlari 1950 yildagi 18 foizdan 1960 yilda 20 foizga ortdi, 1990 yilga kelib esa, ushbu ko'rsatkich 30-35 foizni tashkil etdi»³. «Davlatning o'z funksiyalarini bajarishida moliyaning rolini o'sib borishining ob'ektiv ko'rsatkichi – rivojlangan va dinamik asosda rivojlanayotgan mamlakatlar davlat budjetining kengayishidir. Masalan, AQShda Federal budjet 1950 yildan 1985 yilgacha 20 marta, Buyuk Britaniyada 40 marta, Germaniyada 20 marta, Frantsiyada 30 marta kengaygan»⁴. «1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan moddalari, Ijtimoiy sug'urta fondi xarajatlarining 1,5 foizini yoki 1514,0 mln so'mni tashkil etdi. Bu fond Pensiya fondi va kasaba uyushmalari fondining funksiyalarini o'zida mujassamlashtirib, ish beruvchi va ishlovchilarning ajratmalari va qisman Davlat budjetining ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari hisobidan

¹O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar. Statistik to'plam – T.: O'zbekiston.2011. – B. 37.

²Qarang. Pod rasxodami «rasshirennogo pravitelstva» v sootvetstvi s mejdunarodnoy praktikoy ponimaetsya summa rasxodov federalnogo byudjeta i byudjetov territoriy, a takje, gosudarstvennix vnebyudjetnix fondov. Kadomtseva S. Sotsialnaya politika i naselenie. Ekonomist. 2006. №7. –S.58.

³Jumaev N., Burxonov U. Moliyaning dolzarb muammolari. Monografiya. -T.: «Yangi asr avlodi». 2003. –B. 133.

⁴Jumaev N., Burxonov U. Moliyaning dolzarb muammolari. Monografiya. -T.: «Yangi asr avlodi». 2003. –B. 135.

moliyalashtirildi»¹. «2013 yilda YaIM ning prognoz qilinayotgan o'sishi 8,0 foiz, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8,4 foiz, qishloq xo'jaligi 6,0 foiz, kapital qo'yilmalar 9,3 tashkil etishini hamda mazkur ko'rsatkichlar o'sishining 2012 yil yakunlari bo'yicha kutilayotgan yuqori dinamikasi 2013 yil uchun Davlat budjeti parametrlari shakllantirishdagi asos bo'lib xizmat qildi»². «Davlat budjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlar to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi qildi»³. Bilvosita soliqlar va resurslar to'lovlarini yanada unifikatsiyalash hisobiga ularning Davlat budjeti daromadlaridagi ulushini 65,5 foizdan 66,8 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda. Respublikamizda qabul qilingan budjet parametrlarida qayd etilganidek, joriy ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni davom ettirish, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bir katorda, 2013 yilgi budjet siyosati kontseptsiyasida asosiy e'tibor budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirishga, aholini manzilli qo'llab-quvvatlashga va budjet tashkilotlari ishlovchilarini ish haqilari, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy to'lovlar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. «2013 yil - Obod turmush yili» Dasturni tayyorlashda aholi farovonligini, uning real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini echish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik xarakterini yanada rivojlantirish davlat tomonidan beriladigan aniq manzillik ijtimoiy ximoya tizimining takomillashtirish kabi vazifalar e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim»⁴. O'zbekistonda davlat xarajatlari aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish salmoqli o'rin egallaydi va ular hissasi budjetda ortib borishi kuzatilmoqda.

¹Jumaev N., Burxonov U. Moliyaning dolzarb muammolari. Monografiya. -T.: «Yangi asr avlodi». 2003. –B. 191.

²Xaydarov M. Davlat byudjetining asosiy parametrlari obod turmush yilini ta'minlash omili sifatida. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№1. – B.6.

³arimov I.A. «Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2013 yil. 19 yanvar.

⁴Karimov I.A.«Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, xayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir.\ Xalq so'zi. 2012 yil. 8 dekabr.

Mamlakatimizda 2013 yilda “O‘zbek modeli”ga xos bo‘lgan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga amal qilingan holda, Davlat budjetidan ijtimoiy sohani moliyalashtirishga barcha xarajatlarning 59,0 dan ortig‘ini yo‘naltirish ko‘zda tutilgan. Jumladan, Davlat budjetidan ta‘lim sohasiga ajratilgan mablag‘lar, YaIM ga nisbatan 2012 yildagi 7,4 foiz xarajatlardan ko‘p. Agar 2012 yilda sog‘liqni saqlash tizimiga xarajatlar 3,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2013 yilda bu xarajatlar 3,2 foizni tashkil etadi. Bu esa sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash, davlat ijtimoiy dasturlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishini hamda pensiya ta‘minoti tizimining isloh qilinishini ta‘minlaydi.

1.2.Fuqarolarning pensiya ta‘minotini nazariy jihatlari

“Ijtimoiy soha uchun zarur resurslarni davlat qo‘lida jamlash va ularni adolatli taqsimlash muhim. Shu sababli Davlat budjeti va budjetdan tashqari pul jamg‘armalarida ijtimoiy himoya xarajatlarining hissasi katta lozim”¹. Davlat moliyasi tarkibida alohida o‘rinni egallaydigan budjetdan tashqari fondlar mustaqil yuridik shaxs huquqiga ega, hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi va boshqariladi.

Iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish nechog‘liq katta, hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga hojat yo‘q. Bu avvalambor, davlat tomonidan ta‘lim va sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat sohalariga yanada e‘tibor berish, aholi bandligi, budjet tashkilotlarida ish haqi, pensiya va daromadlarini oshirish, bu oxir-oqibatda respublikamiz mintaqalari, shahar va tumanlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarni echish demakdir.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – pensiya ta‘minoti huquqi bilan

¹Voxabov A. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichida ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. Monografiya. -T.: «Moliya». 2002. –B.143.

mustahkam bog'liq. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi"¹.

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya tizimi tamoyillari asosida ijtimoiy siyosat amalga oshiriladi. Jamiyatni rivojlanishida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash aholi turmush darajasini oshirish kabi vazifalar bajariladi.

1.2.1.-jadval.

Aholi turmush sifatining tarkibi¹

Aholi turmush sifatining tarkibi	
Aholi turmush sifatining ob'ektiv ko'rsatkichlari	Aholi turmush sifatining sub'ektiv ko'rsatkichlari
✓ aholini ijtimoiy himoyalash darajasi va sifati	✓ aholining kelajak hayotga bo'lgan ishonch darajasi
✓ aholi daromad darjasi	✓ aholi madaniyati va axloqi darajasi va sifati
✓ oziq-ovqat maxsulotlari iste'moli darajasi	✓ aholining xayotdan qoniqish darajasi va sifati
✓ nooziq-ovqat mahsulotlari iste'moli darajasi va sifati	✓ aholining yashash sharoitlaridan qoniqish darajasi va sifati
✓ xizmatlarning iste'moli darajasi va sifati	✓ aholining makrodarajadagi ijtimoiy psixologik va iqtisodiy munosabatlar darajasidan qoniqish darajasi
✓ uy joy bilan ta'minlanish darajasi va sifati,	
✓ ijtimoiy infrastruktura bilan ta'minlanish darajasi va sifati	

¹ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartish kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2012 yil 5 yanvar.

¹Vaxabov A. Aholi turmush darajasini oshirishning kontseptual jihatlari. Iqtisodiyotni modernzatsiyalash sharoitida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. –T.6: 2011. –B.5.

✓ tug'ilish darajasi va sifati,	
✓ aholi salomatlik darajasi va sifati	
✓ aholi ta'lim darajasi va sifati	
✓ aholining ish bilan bandlik darajasi	

Quyidagi jadvalda aholi turmush sifatinining tarkibi berilgan. Aholi turmush sifatining ob'ektiv ko'rsatkichlari ichida aholini ijtimoiy himoyalash darajasi va sifatiga urg'u berilgan. Shuni aytib o'tish kerakki, davlat iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy faktorlarning rivojlanishi ustuvorligiga e'tibor qaratishi, aholining turmush farovonligini oshirishni ta'minlashi, ijtimoiy xizmatlar sohasida islohotlarni qonuniy asoslarini yaratishi kerak.

Ijtimoiy himoya hamisha xalqaro-huquqiy tartibga solish va ushbu sohani muvofiqlashtirishga birinchi darajali e'tibor bergan xalqaro tashkilotlarning nazarida bo'ladi. BMT ning 1996 yilda qabul qilgan "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro konvensiya ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquqlarga bag'ishlangan bir necha modda aks ettirilgan. Konventsiyani qabul qilgan barcha mamlakatlar unga rioya etishi shart. O'z faoliyatida ijtimoiy odillik borasidagi umumiy tamoyillar ayrim mamlakatlarning qonun hujjatlarida aks ettirilishiga qaratadigan va qabul kilingan konventsiyalar bajarilishi yuzasidan xalqaro nazoratning mukammal tizimiga ega bo'lgan Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) muhim ahamiyat kasb etadi. 1952 yilda XMT tomonidan ijtimoiy himoya kontseptsiyasini o'z ichiga olgan 102-sonli Konvensiya qabul qilindi. Bu konvensiya barcha fuqarolar ish staji va to'langan ijtimoiy badallarning miqdoridan qat'iy nazar pensiya olishga haqli ekanligini e'lon qildi. Ijtimoiy yordamning quyidagi yo'nalishlarini ajratdi:

- ↪ tibbiy xizmat;
- ↪ kasallik davridagi pensiyalar;
- ↪ ishsizlik pensiyalari;
- ↪ yoshga doir pensiyalar;
- ↪ ishlab chiqarishdagi jarohatlar uchun pensiyalar;

↳ bola tug'ilganlik munosabati bilan to'lanadigan nafaqalar;

↳ boquvchisini yo'qotganlik sababli to'lanadigan nafaqalar;

Konventsiyada ijtimoiy yordam ko'rsatishdagi tenglikning asosiy printsiplari qat'iy belgilangan. Bu konventsiyani qabul qilgan barcha davlatlar o'z hududida XMT a'zosi bo'lgan boshqa davlatning fuqarolariga, qochqinlarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga konventsiyada belgilangan ta'minot turlari yuzasidan o'z fuqarolari bilan teng huquqlarni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiyoti va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi tegishli darajada rivojlanmagan mamlakatlarga konventsiyani «istesnolar» bilan qabul qilish imkoni berilgan. Shunda mazkur mamlakat XMT ga taqdim etiladigan yillik ma'ruzalarda rioya etilmagan moddalar sabablarini asoslab berishi shart.

Bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishda ijtimoiy himoyalash va kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi yaratildi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishildi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini yaratishning kompleks rejasi besh tamoyilda o'z aksini topdi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari qamrab olindi. Bu tanlangan demokratik yo'l aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikning ta'minlashni, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, pensionerlar va nogironlarga, ya'ni iqtisodiy o'tish sharoitida qiyin ahvolga tushib qolgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, ijtimoiy himoyalash tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi.

«Ijtimoiy himoya» va «ijtimoiy ta'minot» bir ma'noli tushuncha emas, balki turdosh tushunchalardir¹. Ulardan ilmiy ta'riflar sifatida foydalanilganda, «ijtimoiy himoya» «ijtimoiy ta'minot»ni tarkibiy kismi sifatida o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya inson faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta'minlovchi mehnat, sog'liq va tabiat, atrof-muhitni muhofaza

¹Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Adolat”. 2009. –B.108..

qilish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni kamrab oladi.

Davlat ijtimoiy sug'urta nafaqalari — mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan (shug'ullangan) va belgilangan tartibda ijtimoiy sug'urtalangan shaxslar (ularning oila a'zolari)ga ular vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lganlari, homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqanlari hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat ijtimoiy sug'urtasi (pensiya jamg'armasi) mablag'lari hisobidan nafaqalar tayinlanadi. Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha Konstitutsiya va qonunlarda kafolatlab qo'yilgan ijtimoiy va huquqiy normalarni ta'minlash maqsadida ijtimoiy muhofaza institutlari va mexanizmlari barpo etiladi hamda ular huquqiy qo'llab-quvvatlanadi. Ijtimoiy himoyaning vazifasi pensiya ta'minotini amalga oshirish, mehnat jarayonida insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini muhofazalash imkonini beradigan turkum tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-tibbiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Hozirgi kunda pensiya va nafaqa tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarni iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi.

I bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot ishi natijasida birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Pensiya jamg'armalaridagi fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg'arma badallari ularni davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi, muayyan jamg'arma tashkil etgan aholi toifalariga to'lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari shakllanadi. Mamlakatimizda fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan muayyan ishlarning huquqiy poydevori barpo etildi. Har kim qariganda, mehnatga yaroqsiz bo'lib

qolganida, shuningdek, boquvchisidan judo bo'lganida hamda qonunda ko'zda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olishga haqli, degan qoidaga muvofiq fuqarolarni xilma-xil shakldagi ijtimoiy himoyalash kafolatlab qo'yildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilab berilgan pensiya ta'minoti huquqi bilan mustahkam bog'liq.

2. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni talab etdi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, davlatning maqsadli jamg'armalari tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi.
3. Davlat ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan YaIMning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, oxirgi yillarda kuzatilayotgan YaIMning yuksak o'sish sur'atlari, makroiqtisodiy rivojlanish natijalari mamlakat iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlanishining natijasi sifatida namoyon bo'ldi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida mamlakat fuqarolarining pensiyasini belgilovchi asosiy omil sifatida Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalaridagi pul mablag'larining mavjudligi e'tiborga olindi.
4. Respublikamizda joriy ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni davom ettirish, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bir katorda, 2013 yilgi budjet siyosati kontseptsiyasida asosiy e'tibor budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirishga, aholini manzilli qo'llab-quvvatlashga va budjet tashkilotlari ishlovchilarini ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy to'lovlar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

5. «Pensiya» kategoriya sifatida pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirish va keksayganda chog'ida undan foydalanish shakl va usullari yig'indisini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. Pensiyaning olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovlaridir.
6. Pensiya ta'minoti tizimida O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur qonun pensiya oid qabul qilingan barcha me'yoriy hujjatlar majmuasini, pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunda pensionerlarni huquqiy himoyaladi, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqligi ta'minlandi.
7. Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, «Davlat budjeti xarajatlari YaIMga nisbatan quyidagi ulushga ega baldi, 1991 yilda 52,7 foizni, 1994 yilda 33,3 foizni, 2000 yilda 29,0 foizni, 2005 yilda esa 21,5 foizni, 2010 yilda 21,6 foizni, 2012 yilda 21,5 foizni tashkil etdi oshgan. YaIMga nisbatan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari 2008 yilda 7,8 foizni, 2009 yilda esa 7,8 foizni, 2010 yilda 7,9 foizni, 2011 yilda 8,0 foizni, 2012 yilda 8,3 foizni tashkil etdi. YaIMga nisbatan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari 2008 yilda 8,1 foizni, 2009 yilda esa 8,0 foizni, 2010 yilda 8,0 foizni, 2011 yilda 8,0 foizni, 2012 yilda 8,1 foizni tashkil etdi.
8. MDXning mamlakatlarida pensiya ta'minoti sohasida o'tkazilayotgan islohotlar xususiyatiga ko'ra ular uchun umumiy bo'lgan quyidagi yo'nalishlar aniqlandi:
 - ↳ MDX davlatlarida pensiya tizimining asosini davlat pensiya ta'minoti va davlat pensiya sug'urtasi tashkil etadi;
 - ↳ jamg'arish elementlarini asta-sekin kengaytiriladi;


- ↳ qo'shimcha kasbiy majburiy yoki ixtiyoriy nodavlat tizimlarini kiritgan holda avlodlar birdamligi tizimini saqlab qolinadi;
- ↳ jamg'arish tamoyillariga qurilgan xususiy pensiya ta'minoti tizimi rivojlantiriladi.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING HOZIRGI HOLATINING TAHLILI

2.1. Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining me'yoriy-huquqiy bazasining tahlili

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiyalari to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

Qonun bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.



2.1.1.-rasm. Davlat pensiya turlari¹.

Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin. Davlat pensiyalarining

¹ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr.

turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

Harbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi, ularga qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

Fuqarolar yoshga doir pensiya olish huquqiga:

⇒ erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

⇒ ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiyalari to'g'risida”gi Qonuni 37-moddasi birinchi qismining «a», «b», «v» va «g» bandlarida nazarda tutilgan kamida 5 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

- yoshidan qat'i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati;


- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati;

-umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati.

Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega. Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.


Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi. 20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi. Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan (17-modda) umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda (29-modda) tayinlanadi.



2.1.2.-rasm. O'zbekiston Respublikasida tayinlangan pensiya miqdorining tarkibi¹.

¹O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunn. 1993 yil. 3 sentyabr.



2.1.3.-rasm. O'zbekiston Respublikasida o'rtacha pensiyaning tarkibi¹.

Pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi:

- ✚ pensiyaning tayanch miqdoridan;
- ✚ ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan;
- ✚ pensiyaga qo'shiladigan ustama haqidan.

Pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilanadi:

a) yoshga doir pensiya uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

g) oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik

¹O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari.

ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

d) ota-onasidan judo bo'lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida.

"Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqiga qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallari hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi barcha daromadlar qo'shiladi. Davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalanmaydigan shaxslarga pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqiga qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallari hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga o'xshash pul ta'minotining barcha turlari qo'shiladi. O'qish davrida to'langan stipendiya pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga ko'ra ish haqiga tenglashtiriladi. Ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan xodimlarning (dehqon xo'jaliklarining a'zolari, ayrim fuqarolarning yumushlarini bajaruvchi shaxslar va boshqalarning) pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqining miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ish haqining natural qismi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi uchun hisoblangan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi»¹.

"Pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yildagi (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi o'tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun

¹«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish kiritish haqida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2012 yil 5 yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda qayta hisoblanadi.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga ko'ra, ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar to'liq ishlangan kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiya so'rab murojaat etgan kishi besh yildan kam ishlagan hollarda, pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi istalgan ketma-ket besh mavsumdagi qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan ortiq bo'lmagan miqdordagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar umuman mavjud bo'lmagan hollarda pensiya eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Chet elda ishlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ijtimoiy himoya tizimiga oid huquqiy asoslarning takomillash-tirilayotganligi ijtimoiy sohaga Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar salmog'i va samaradorligining ortishiga xizmat qilmoqda. Bundan ko'zlangan pirovard maqsad ham fuqarolar manfaatlarini yanada kengroq himoya qilish va xalq farovonligini oshirishdir. Respublikamizda 2010 yilning 23 dekabrda e'lon

qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi qonun ham shu maqsadga yo’naltirilgan.

Ijtimoiy siyosatni adolat tamoyillaridan kelib chiqib amalga oshirishda uning huquqiy asoslarining zamon talablariga mos bo’lishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonun ham pensiya qonunchiligini yanada takomillashtirish, ilg’or xalqaro tajriba hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish, shuningdek Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi mablag’larini shakllantirishda fuqarolarning qo’shgan shaxsiy hissasi bilan tayinlangan pensiyalar miqdori o’rtasidagi uzviylikni ta’minlashdan iborat. Ayni paytda, amaldagi pensiya ta’minoti qonunchiligiga kiritilgan mazkur o’zgartirish va qo’shimchalar aholining bandligini va farovonligini yanada oshirish, rasmiy sektorda mehnat qilishni rag’batlantirishda muhim omil bo’lishini ham alohida ta’kidlash lozim (2-ilova).

Respublikamizda 1993 yil 3 sentabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunda yoshga doir pensiya olish huquqini beruvchi mehnat stajining quyi chegarasi belgilanmagan edi. Fuqaro 1 oy, hatto 1 kun ishlagan fuqaroga ham yoki 10 yil ish stajiga ega fuqaroga ham pensiya yoshiga etganda bir xil – eng kam miqdordagi pensiya tayinlandi. Ko’rinib turganidek, bu ijtimoiy adolat printsiplariga to’la mos kelmasdi. Aslida kim ko’p va samarali mehnat qilgan bo’lsa, pensiya yoshiga etganida shunga yarasha daromad ko’rishi kerak. Bir qator davlatlarning qonunlarida pensiya tayinlash uchun kamida 5 yillik sug’urta badallari to’langan ish staji bo’lishi belgilangan. Jumladan, AQShda pensiyaga chiqish uchun kamida 5 yildan 10 yilgacha ish staji talab etiladi. Litva va Estoniyada ushbu talab 15 yildan iborat. Chilida esa kamida 20 yil davomida sug’urta badallari to’langan fuqarolargagina eng kam miqdordagi pensiyalar tayinlanadi.

Shu munosabat bilan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 8-moddasiga o’zgartirish kiritilib, pensiya

tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu qonunning 37-moddasi birinchi qismi "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida 5 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, mavjud stajga mutanosib miqdorda tayinlanishi belgilandi. Pensiyaga chiqayotgan fuqaro, umri bo'yi ishlamagan, masalan, uy bekasi bo'lgan, talab etilayotgan 5 yillik ish stajiga ega bo'lmasa, bu fuqarolarning keksalikdagi ijtimoiy himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-sonli qarorida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ya'ni, mazkur qarorda bolalikdan nogironlarga, mehnatga layoqatsiz fuqarolarga hamda zarur ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi belgilangan.

Mamlakatimiz qonunchiligida aholining huquq va manfaatlarini himoyalashni mustahkamlashga qaratilgan qator imtiyozlar belgilangan. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining ayrim moddalariga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega fuqarolar toifasi ham nazarda tutilgan. Qonunlarimizda ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarga qonuniy imtiyozlar yaratish alohida e'tiborga olingan. Xususan, ekologiya falokati mintaqasida ishlaganlarga imtiyozli pensiya tayinlash huquqi 1993 yil 3 sentabrdagi qonun bilan joriy qilingan. Bunga Chernobil atom elektr stantsiyasida yuz bergan halokat asos sifatida olingan. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolarga imtiyozli pensiya tayinlash normasi faqat O'zbekiston Respublikasi pensiya qonunchiligida mavjud va boshqa biror bir davlat qonunchiligida bunday me'yor nazarda tutilmagan. Shuningdek, tabiiy ofat, halokat yoki falokatlar sodir bo'lgan hududlarda xizmat vazifasini o'tagan va mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 apreldagi "Chernobil halokatida ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash haqida"gi, 2002 yil 31 mayda qabul qilingan

“Yadro poligonlarida va boshqa – yadro obektlarida harbiy xizmatni oʻtagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari shular jumlasidandir.

Ammo hozirgi kunga kelib bunday imtiyozlarga hayotda ehtiyoj deyarli qolmadi. Shularni inobatga olib, “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 9 moddasiga oʻzgartish kiritildi, imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega fuqarolar toifasidan ekologiya mintaqasida ishlaganlar chiqarildi. Ayni paytda Oʻzbekiston Respublikasida ekologik noqulay hududlar, jumladan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Navoiy va Toshkent viloyatining Yangiobod shaharchasida ishlovchilarning oylik ish haqlariga belgilangan mintaqaviy koeffitsentlar saqlab qolindi.

Mamlakatimizdagi barcha taʼlim va tibbiyot maskanlari zamonaviy texnika, texnologiyalar va jihozlar bilan taʼminlanmoqda. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy oʻzgarishlarning amalga oshirilishi natijasida barcha sohalarda mehnat unumdorligi oʻsishi va daromadlarning keskin oshishiga erishilmoqda. Mamlakatimizda erishilayotgan bunday yuksak samara va yutuqlar “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi qonunning 12-moddasi “z”, “k” va “l” bandlarini qayta koʻrib chiqishni taqozo etdi. Mazkur bandlarda oʻqituvchilar va taʼlim sohasining boshqa xodimlari, shifokorlar va boshqa tibbiy xodimlar, shuningdek, besh va undan ortiq farzand tuqqan va ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar uchun imtiyozli pensiya olish huquqi nazarda tutilgan edi. Mazkur Qonunga kiritilgan oʻzgartishlarda imtiyozli toifalar optimallashtirilib, muassasalar turi boʻyicha imtiyozlar umumtaʼlim maktablaridan maxsus ixtisoslashgan maktablarga oʻtkazildi hamda barcha turdagi tibbiyot muassasalari oʻrniga ish sharoiti ogʻir va zararli maxsus ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari xodimlari uchun saqlab qolindi. Shuningdek, qonunga kiritilgan yangi tahrirga binoan transport sohasining temir yoʻl transporti, metropoliten hamda daryo transporti xodimlariga belgilangan imtiyozlar saqlab qolindi.


Mamlakatimizda aholining kam ta'minlangan qatlamlari huquq va manfaatlarini himoyalash, nogironlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli va izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Qonunlarimizda belgilangan imtiyozlar orqali nogironlarning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ma'lumki, III guruh nogironlarining aksariyati iqtisodiyotning turli sohaslarida faoliyat yuritadi. Boshqacha aytganda, mehnat qilishga qodir fuqarolardir. Ular orasida salomatligida arzimagan nuqsoni bor, lekin muayyan sohalarda bemalol mehnat qilishga yaraydigan, ammo "yo'lini topib" nogironlik pensiyasiga "chiqib olgan" shaxslar ham uchrab turadi. Shu bois, qonunning yangi tahririga asosan, 2011 yil 1 yanvardan yangi belgilanadigan III guruh nogironlariga pensiya tayinlash bekor qilindi. Ayni paytda, mazkur guruh nogironlari uchun kvotalar asosida ishga joylashish va ularni bepul tibbiy anjomlar bilan ta'minlash bo'yicha qonunchilikda belgilangan imtiyozlar to'la saqlab qolindi. Xodimning pensiya yoshiga etishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish huquqini ish beruvchiga berish, nogironlik guruhlari bo'yicha pensiya tayinlash hamda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til davrida mehnat stajini hisoblash masalalarini tartibga soluvchi qonun normalarining takomillashtirilishi, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ham tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etdi. Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 100-moddasi (Mehnati shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish) ikkinchi qismini yangi 7-band ("xodimning pensiya yoshiga to'lganligi, bunda qonunchilikka muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo'lganda" so'zlari) bilan to'ldirildi. Bundan ko'zlangan maqsad – mamlakatimizda jadal joriy etilayotgan va alohida tayyorgarlikni talab etadigan zamonaviy axborot va ishlab chiqarish texnologiyalariga xodimlarning ko'nikma va tayyorgarligini oshirish, pensiya oluvchilarning jismoniy imkoniyatiga mehnat vazifalarining mos kelishini ta'minlash va ular uchun mehnat faoliyatining maqbul sharoitlarini yaratishdan iborat. Bunda pensiya yoshiga etgan xodimlarning mehnat qilishi uchun maqbul

sharoitlarni yaratish, zarur hollarda ularni engilroq vazifalarga o'tkazish, shuningdek, mehnatga oid munosabatlarni boshqarishni takomillashtirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2010 yil 20 martda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi muhokamasiga "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini kiritgan edi. Aslida, bu huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida ishlab chiqilgan. Huquqiy hujjatda mavjud bir qator qonunlarimizga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Xususan, uning ayrim moddalari bilan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Budjet tizimi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ba'zi bir o'zgartishlar kiritildi.

2.2.O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirishning hozirgi holati

Qonunchiligimizga kiritilgan mazkur o'zgartishlar fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti masalalarini hamda mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajriba va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mosligini ta'minlash, pirovardida pensiya ta'minotida ijtimoiy adolat printsiplarini kuchaytirish, yuqori ish haqi olib ishlagan fuqarolarga mutanosib miqdorda pensiyalar tayinlash imkoniyatlarini yaratish va pensiyalar miqdorini ustuvor tarzda oshirishga xizmat qiladi. Pensiya ta'minoti – ijtimoiy himoyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, aholining manfaatlarini ta'minlash hukumatimiz olib borayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishini tashkil qiladi.



2.2.1.-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2012 yil jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni¹.

Quyidagi rasmda O'zbekiston Respublikasida 2012 yilga jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni berilgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jami pensiya va nafaqa oluvchilar ichida yoshga doir pensiya oluvchilar katta ulushga ega, 2100441 nafar kishi (71,3 foiz)ni tashkil etgan, nogironlik pensiyalari oluvchilar

¹O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari.

442010 nafar kishi bo'lib, 15,0 foizni tashkil etgan, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari ni 183660 nafar kishi oladi, mazkur fuqarolar 6,2 foizni tashkil etgan hamda bolalikdan nogironlik nafaqalari oluvchilar 219449 nafar kishi (7,5 foiz)dan iborat.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son Qarori qabul qilindi.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb ataladi) pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funktsiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Jamg'arma idoraviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari - Moliya vaziriga, Jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Jamg'arma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi. Jamg'arma o'z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Jamg'arma tizimiga: Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari; Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari; Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi; bosh,

tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Jamg'arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta'minoti respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.



2.2.2.-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimi¹.

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son Qarori.

Jamg'armaning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

- ✚ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;
- ✚ pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;
- ✚ tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash;
- ✚ mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;
- ✚ tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to'lovlar va badallar:

- ⇒ belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari;
- ⇒ alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;
- ⇒ fuqarolarning sug'urta badallari;
- ⇒ jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari;
- ⇒ majburiy ajratmalar;

b) boshqa to'lovlar:

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar)

bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;
- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;
- hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari);
- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan, Davlat budjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar.

2.2.1.-jadval.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlarining tahlili¹

(mlrd. so'm)

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	YILLAR				
			2008	2009	2010	2011	2012
1.	Jami daromadlar	mlrd. so'm	2551,6	3343,4	4737,6	6156,0	7785,3
	YaIT stakasi	foizda	23,5	23,6	24,8	24,8	24,8
1.2.	YaIT stakasi	mlrd. so'm	1710,7	2164,8	2926,9	3737,6	4799,2
	Sug'urta badali stavkasi	foizda	2,5	3,5	4,0	4,5	5,5
1.3.	Sug'urta badallari	mlrd.so'm	185,2	303,7	484,4	697,1	1110,2
1.4.	Mahsulotlar, ishlar, xizmatlar sotishdan ajratmalar	mlrd. so'm	532,7	716,6	1006,4	1265,5	1401,5
	Ajratma stavkasi	foizda	1,0	1,0	1,5	1,5	1,6
1.5.	Boshqa daromadlar	mlrd. so'm	123,0	158,3	310,9	455,8	474,4
2.	Jami xarajatlar	mlrd. so'm	2985,9	4016,5	5006,2	6030,6	7551,5
2.1.	Ishlamaydigan pensionerlar	mlrd. so'm	2739,2	3677,2	4736,9	5803,5	7246,0
2.2.	Ishlamaydigan pensionerlar	mlrd. so'm	128,8	159,4	252,4	222,5	290,9
4.	Taqchilik / ortiqcha	mlrd. so'm	-434,3	-673,1	-268,6	125,4	233,8
5.	YaIM ga daromadlari	foizda	8,1	8,0	8,0	8,0	8,1
6.	YaIM ga xarajatlari	foizda	7,8	7,8	7,9	8,0	8,3
7.	Yil oxiriga qoldik	mlrd. so'm	637,3	784,6	799,3	619,8	164,8

¹O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlarining tahlili berilgan. Pensiya jamg'armasining asosiy daromadlari yuridik shaxslar tomonidan shakllantirilgan mehnat haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov shaklidagi daromadlar hisoblanadi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari tizimida oldingi yildagi yil boshiga qoldiq qismi biroz ko'paygan, bu esa fond mablag'laridan tejamkorlik asosida foydalanilayotganligidan dalolat beradi.

Respublikamizda yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 2008 yilda 23,5 % ni, 2009 yilda 23,6 % ni, 2010-2012 yillarda 24,8 % ga teng bo'lgan. Pensiya jamg'armasi daromadlarning asosiy ulushini yuridik shaxslar ish haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov tushumlari tashkil etmoqda. Jami daromadlarning 2008 yilda 67,0 % ni, 2009 yilda 64,7 % ni, 2010 yilda 61,7 % ni, 2011 yilda 60,7 % ni, 2012 yilda 61,6 % ni tashkil etgan.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari 2008 yilda 2985,9 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2009 yilda 4016,5 mlrd. so'mga etgan, 2010 yilda 5006,2 mlrd. so'mni tashkil etgan, 2011 yilda 6030,6 mlrd. so'm bo'lgan, 2012 yilda 7551,5 mlrd. so'mga ko'tarilgan. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlarida ishlaymaydigan pensioner-larga pensiya xarajatlari 2008 yilda 91,7 % ni, 2009 yilda 91,5 % ni, 2010 yilda 94,6 % ni, 2011 yilda 96,2 % ni, 2012 yilda 95,9 % ni tashkil etgan.

Jamg'arma mablag'lari:

a) ishlaymaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash uchun;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar uchun sarflanadi.

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish uchun Jamg'armaning hududiy bo'linmalari tomonidan G'aznachilikning bo'linmalarida hisob raqamlari ochiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2009 yil 30 dekabrda qabul qilgan "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ushbu mexanizm samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Mazkur hujjatda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, mamlakatimiz fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladigan qator yangiliklarni joriy etish belgilangan.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha vazifalar yuklangan. Yangi tuzilma fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to'lovlarning miqdori qayta hisoblab chiqilishini ta'minlaydi.

Aholining jinsiy tarkibi — aholi tarkibidagi erkaklar va ayollarning son jihatdan nisbati, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan belgilanadi.

Ko'pgina mamlakatlarda, ikkita eng yirik mamlakatni (Xitoy va Hindistonni) istisno etganda ayollar soni erkaklar sonidan ustunlik qiladi. Barcha mamlakatlarda ayollar hayotining davomiyligi erkaklarnikiga nisbatan uzoqroq.

“BMT ma'lumotlariga ko'ra, keyingi 50 yil ichida o'rtacha umr ko'rish 20 yilga uzaydi. 1950 yilda dunyoda 60 yoshdan katta kishilar soni 214 million, 2000 yilda 612 millionga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025 yilda esa 11 millionni tashkil etadi. Bu yillar keksalar soni besh marta o'sgani holda, sayyoramizning aholisi miqdori uch barobar ko'payadi. 65 yoshdan oshgan aholi soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayni paytda, 35 mamlakatda aholining 20-26 foizi 60 yoshdan oshgan. “Aholi va ijtimoiy himoya muammolari milliy instituti”ning tahlillariga ko'ra, demografik holatni bunday davom etishi 2055 yilda aholi sonini 89,9 mln. kishini tashkil kiladi va 65 yoshdan katta keksalar bularning 40,5 foizini qamrab oladi”¹.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish darajasi 73 yil hisoblandi. Erkak kishi 60 yoshda pensiyaga chiqqanda – o'rtacha 13 yil pensiya oladi. Ayol kishi 54 yoshida pensiyaga chiqqanda – o'rtacha 18 yil pensiya oladi (-jadval). Mamlakatimiz aholisi sonining yildan-yilga o'sib borayotganligini qayd etish muhimdir. Biroq aholi sonining o'sishi uning munosib turmush darajasini ta'minlash va pensiya ta'minoti borasida ham muayyan mas'uliyatni keltirib chiqaradi. Bulardan asosiysi – yaxshi hayot kechirish uchun pensiya olib, etarli daromad hajmiga ega bo'lishi kerak.

¹Raxmonov D A. “Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish” uslubini qo'llash orqali sog'liqni saklash tizimida mablag'larni samarali boshqarish. // Moliya. -Toshkent. 2011. -№1. – B. 42.

2.2.2.-jadval.

Fuqarolarga pensiya tayanch miqdoriga qo'shimchalar hisoblanishi¹.

Qo'shimcha yillar	Pensiya oshishi	Pensiya tayanch miqdoriga qo'shimcha (so'mda)	Erkaklar uchun		Ayollar uchun	
			Pensiya olish mumkin bo'lgan oylar soni	Jami qo'shimcha (mln.so'm)	Pensiya olish mumkin bo'lgan oylar soni	Jami qo'shimcha (mln.so'm)
1 yil uchun	2%	10 067,20	156	1 570	216	2175
2 yil uchun	4%	20 134,40	144	2 899	204	4107
3 yil uchun	6%	30 201,60	132	3 987	192	5799
4yil Uchun	8%	40 268,80	120	4 832	180	7248
5 yil uchun	10%	50 336,00	108	5 436	168	8456

O'zbekistonda keksalar sonining yildan-yilga ko'payib borishi inson salomatligi, atrof-muxit tozaligi, oziq-ovqatning etariligi, sog'lom turmush tarzi, farovon hayot bilan belgilanadi. O'zbekistonning demografik o'ziga xosligi ayollar sonining erkaklar miqdoridan sezilarli daraja ko'pligidir. Bunday nomutanosiblik mamlakatning katta yoshdagi aholi uchun xos.

Respublikamizda ayollar o'rtacha 74,4 yilni, erkaklar 70,5 yilni yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish darajasi 73 yil hisoblandi. Erkak kishi 60 yoshda pensiyaga chiqqanda—o'rtacha13 yil pensiya oladi. Ayol kishi 54 yoshida pensiyaga chiqqanda – o'rtacha 18 yil pensiya oladi.

2.3.O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish holati

Hozirgi kunda pensiya va nafaqa tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarni iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borish bilan birga, ijtimoiy himoyalash va

¹O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari.

kafolatlashning kuchli, tizimli va ta'sirchan mexanizmini yaratish hamda ijtimoiy barqarorlikka erishish maqsadida, 2010 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-sonli Farmoniga muvofiq, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lovini monitoring qilish, ularni hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2010 yildagi 4161-sonli Farmoni bilan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga:

- ⇒ fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- ⇒ budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash;
- ⇒ budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'z zimmasiga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni, xususan, pensiyalar hamda boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va to'lashda o'rnatilgan qoidalarning qo'llanish qismida ularning bajarilishini muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshirish yuzasidan qo'shimcha vazifalar yuklatildi.

Mazkur jamg'arma Ijro etuvchi apparat, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 14 ta hududiy boshqarma hamda 196 ta tuman (shahar) bo'limidan iborat tashkiliy tuzilmaga ega bo'lib, unda 5 000 ga yaqin xodim faoliyat ko'rsatmoqda. Jamg'armaga tibbiy-mehnat ekspertizasi (TMEK) faoliyatini tashkil etish vazifasi ham yuklatilgan bo'lib, bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha 108 ta bosh, tumanlararo, tuman (shahar) TMEKlari faoliyat yuritmoqda.

Davlat pensiya ta'minoti sohasida kadrlar samaradorligini oshirishga, uning sifat tarkibini yaxshilashga hamda sohani huqukiy bilimdon, oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar birmuncha samarali natijalarga erishishni

ta'minlamoqda. Sohada kadrlar siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish, uning samaradorligini oshirish maqsadida, oliy o'quv yurtlarida shunday mutaxasssiliklarga talabalar kabul qilinmoqda. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimida yosh mutaxassislarni «Ustoz-shogird» usulida tizimli tarbiyalash mexanizmi joriy etildi. Bugungi kunda yosh mutaxassislar tomonidan davlat pensiya ta'minotini mukammal o'zlashtirib borish, ularning amaliy ish faoliyati davomida me'yoriy hujjatlarga rioya etmaslik holatini olish bilan izohlash mumkin.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishga oid asosiy normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi. Pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini yanada oshirish hamda ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, davlat pensiya tizimini 2012-2016 yillarda barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhitni shakllantirish yo'li bilan fuqarolarni kafolatlangan davlat pensiyalari bilan ta'minlash hamda bu borada joylardagi shart-sharoitlarni yaxshilash yuzasidan Kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi va mazkur dastur o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlandi. Bularning barchasi aholi turmush farovonligini ta'minlash, nuroniy va pensionerlarni e'zozlash, tizimni takomillashtirib borish orqali fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini adolatli tashkil etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalarida tegishli bo'limlar tashkil qilindi. Ular tomonidan yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilishi to'g'riligini, shu jumladan fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig'majildida birlamchi hujjatlarning to'liqligi va ishonarliligini tekshirish yo'li bilan yoppasiga tekshiruvlar amalga oshiriladi. Ishlovchi pensionerlarga mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan pensiyalar hamda nafaqalarning

hisoblab yozilishi va to'lanishi to'g'riligini reja asosida tekshiradi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarga pensiya va nafaqalar o'z vaqtida va to'liq to'lanishining tizimli monitoringini olib borish, qoidabuzarliklarga qarshi tegishli choralarni ko'rish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-4161-son Farmoniga muvofiq, boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish va pensiya ta'minoti tizimini amal qilishini samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha ravishda qo'shimcha vazifalar va funktsiyalar yuklatildi.

Jamg'armaning Kuzatuv kengashi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Jamg'armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash to'g'risidagi axborotlarini eshitadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4161-sonli Farmoniga muvofiq, Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning tegishli hududiy bo'linmalari tashkil etilgan. Moliya vazirligining 2010 yil 29 noyabrda buyrug'iga asosan, 2010 yilning dekabr oyidan boshlab, Nazorat-taftish bosh boshqarmasi, moliya idoralari va Pensiya jamg'armasining jami 1121 nafar mutaxassislari jalb qilingan holda Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida, o'sha davrgacha tayinlangan pensiya ishlari yoppasiga hujjatli tekshiruvdan o'tkazilib, aksariyat tekshiruv natijalarida noqonuniy hujjatlar asosida pensiya tayinlangan holatlar kuzatilmog'da. "Jumladan, 2012 yil 1 aprel holatiga respublika bo'yicha 43,1 foiz pensiya ishlari tekshiruvdan o'tkazilib, shundan 10 foizdan ko'p ishlarda kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu holatlarning aksariyat qismi, jumladan 30,8 ming pensiya ishlarida ma'lumotlarni kompyuter bazasiga noto'g'ri kiritish oqibatida, 69,7 ming pensiya ishlarida arxiv idoralari tomonidan fuqarolarga taqdim etilgan ish haqi va mehnat staji to'g'risidagi

qalbaki ma'lumotlar evaziga, 10,5 mingdan ortiq ishlarda fuqarolarni ish joyini yashirish va nogironlik guruhlarini asossiz ravishda o'zgartirish natijasida hamda 9 mingdan ortiq ishlarda fuqarolarning tug'ilgan yili va boshqa qonun buzilish holatlari aniqlandi»². Buning natijasida, yirik miqdordagi davlat mablag'lari noqonuniy sarflanishining oldini olish choralari ko'rilmoqda.

Tizimdagi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 2011 yilda 40 dan ortiq tuman (shahar) bo'limlari binolari qayta ta'mirlandi, qurilish va kapital rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Joriy yilda Pensiya jamg'armasining 89 tuman (shahar) bo'limlari o'zining yangi va rekonstruktsiya qilingan ma'muriy binolariga ega bo'lishadi. Joylardagi tuman (shahar) bo'limlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda, e'tiborli jihatlaridan biri sifatida fuqarolarni qabul qilish xonalari tashkil etilayotganligini, zarur jihozlar o'rnatildi, fuqarolar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

- ⇒ Qonunga asosan faqat ish staji mavjud bo'lgan shaxslar (yoki ularning qaramog'idagilar)ga uch turdagi : yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari tayinlanishi belgilandi;
- ⇒ imtiyozli shartlarda ham pensiya tayinlanadi;
- ⇒ respublikada doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham agar davlatlararo bitimlarda o'zgacha qoidalar bo'lmasa, respublika fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga ega;
- ⇒ sug'urta badali to'lanmagan qator faoliyat turlarini stajga qo'shib olish belgilandi;

² Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. - B.11.

⇒ ayrim faoliyat davrlari ish stajiga 1,5 barobar, 2 va 3 barobar qo'shib hisobga olinadi;

⇒ ayrim imtiyozli toifadagi pensionerlar pensiyalariga ustamalar qo'shib to'lanadi;

⇒ yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo'lgan fuqarolar ham pensiya ta'minotida teng huquqli hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga pensiya to'lash tartibini yanada takomillashtirish uchun markazlashtirilgan dasturiy majmua yaratilishi davlat pensiya ta'minotining quyidagi jarayonlarini qamrab oladi:

- ➡ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachilik va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining informatiyalashgan tizimi ulangan yagona axborot tizimi yaratish;
- ➡ pensiyalarni avtomatik tarzda hisoblash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarni oshirish bo'yicha Farmonlariga muvofiq pensiyalarni markazlashtirilgan holda qayta hisoblash;
- ➡ pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, qayta hisoblash va to'lash jarayonlari bo'yicha kamaral nazorat va kunlik monitoring o'rnatish;
- ➡ tegishli tashkilotlarning informatiyalashgan axborot bazasiga integratsiyalanish imkoniyatini yaratish.

Mamlakatimizda fuqarolarga pensiya to'lash tartibini yanada soddalashtirish, ixchamlashtirish fuqarolarga qulay bo'lgan ijtimoiy himoya vositalarining samarali ishlayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakatda pensiya tizimini isloh qilishida eski pensiya tizimini yangi ijtimoiy va demografik sharoitga moslashtirishning turli usullari qo'llanilishi lozim. 1) pensiya ta'minoti asosan uchta bosqichda bo'ladi: majburiy, va ish beruvchi beradigan pensiya hamda shaxsiy pensiya; 2) davlat barcha turdagi

pensiya ta'minotini me'yorga soladi va nazorat qiladi; 3) Ish beruvchi beradigan va shaxsiy pensiya olish usullari rag'batlantiriladi; 4) pensiya tizimi har bir fukaroga moslashtiriladi, pensiya sug'urta badallarining miqdori va qancha vaqt to'langaniga bog'liq bo'ladi. Pensiya tizimining farq qiladigan xususiyatlariga yana pensiya badallarini to'lash va taqsimlash, demografik muammolar (pensiya yoshining o'zgarishi) va pensiya badallarini ko'paytirish muammolari hal qilinganini aytish mumkin.

Xorijiy mamlakatlardagi pensiya ta'minoti tizimidagi tahlillardan ma'lum bo'ldiki, pensiya islohotlari uchta asosiy yo'nalishda o'tishi mumkin:

- a) jamg'arib boriladigan usulni joriy qilmasdan mavjud avlodlar birdamligi tamoyili asosida taqsimlash usulini yangilash;
- b) jamg'arib boriladigan usulga o'tib taqsimlash usuli samaradorligi oshirish;
- c) jamg'arib boriladigan va taqsimlash usullarini uyg'unlashtirish.

Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti masalalari «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuniga asosan tartibga solinadi. O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha davlat kafolatlari mavjud. Davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'lanishini kafolatlaydi. Qonunning 5-moddasiga asosan, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larining saqlanishi va to'lanishi Davlat tomonidan kafolatlanadi. Shuningdek, Qonunning 10-moddasida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida to'plangan mablag'larga daromad hisoblash foizi inflyatsiya darajasida yuqori bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisoblarida to'plangan pul mablag'lari faqat ana shu hisob egalari bo'lgan fuqarolarga tegishlidir. Ularning o'zlari, ishonch bildirgan boshqa shaxslar yoki merosxo'rlardan boshqa hech kim pul

mablag'ini olish huquqiga ega emas. Fuqarolar shaxsiy jamg'arma pensiya mablag'larini olishlari davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo'lingan paytdan boshlab bir vaqtda yoki oyma - oy teng ulushlarda olishlari mumkin, uning shakli oluvchi fuqaro tomonidan belgilanadi.

II bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot ishi natijasida ikkinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi.

1. Qonunchiligimizga kiritilgan o'zgartishlar fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti masalalarini hamda mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajriba va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mosligini ta'minlash, pirovardida pensiya ta'minotida ijtimoiy adolat printsiplarini kuchaytirish, yuqori ish haqi olib ishlagan fuqarolarga mutanosib miqdorda pensiyalar tayinlash imkoniyatlarini yaratish va pensiyalar miqdorini ustuvor tarzda oshirishga xizmat qiladi.
2. Ijtimoiy himoya tizimiga oid huquqiy asoslarning takomillashtirilayotganligi ijtimoiy sohaga Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar salmog'i va samaradorligining ortishiga xizmat qilmoqda. Bundan ko'zlangan pirovard maqsad ham fuqarolar manfaatlarini yanada himoya qilish va xalq farovonligini oshirishdir.
3. O'zbekistonda davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.
4. Mamlakatimiz qonunchiligida aholining huquq va manfaatlarini himoyalashni mustahkamlashga qaratilgan qator imtiyozlar belgilangan. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining ayrim moddalariga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega fuqarolar toifasi

ham nazarda tutilgan. Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega.

5. Pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi: pensiyaning tayanch miqdoridan; ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan; pensiyaga qo'shiladigan ustama haqidan. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi,
6. Chet elda ishlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.
7. Ijtimoiy siyosatni adolat tamoyillaridan kelib chiqib amalga oshirishda uning huquqiy asoslarining zamon talablariga mos bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Pensiya qonunchiligini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajriba hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish, shuningdek Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirishda fuqarolarning qo'shgan shaxsiy hissasi bilan tayinlangan pensiyalar miqdori o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashdan iborat.
8. Respublikamizda ayollar o'rtacha 74,4 yil, erkaklar 70,5 yil yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish darajasi 73 yil hisoblandi. Erkak kishi 60 yoshda pensiyaga chiqqanda—o'rtacha 13 yil pensiya oladi. Ayol kishi 54 yoshida pensiyaga chiqqanda – o'rtacha 18 yil pensiya oladi.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish tajribalari

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarini pensiya ta'minoti tizimi rivojlanishining birinchi bosqichi deyish mumkin. Dastlabki pensiya jamg'armalari sug'urta badallari ko'rinishida shakllantirilgan. Mamlakatda ishlovchining sug'urta badallarini to'lash imkoniyati uning bu tizimda ishtirok etishini ta'minlab bergan. Shu tufayli unda ishtirok etish faqat ishlaydigan erkaklar va ularning oila a'zolari bilan chegaralangan. Shunday qilib, pensiya olish huquqi sug'urtalangan shaxsning badallar to'lashining aniq shartlari bilan uzviy bog'langan holda tizimning qamrab olish sohasi cheklangan bo'lib, to'lanadigan pensiya miqdori yuqori bo'lmagan.

Birinchi bosqichning muhim jihati, o'zaro yordam va fuqarolarga tibbiy xizmat ko'rsatilishi bo'ldi. Shu yo'nalishda tarixiy qadam XIX asrning oxirida qo'yildi, Bismark boshqarayotgan Germaniya hukumati sanoatda ishlovchilar uchun majburiy ijtimoiy sug'urta tizimini amaliyotga kiritdi. Bu tizim kasallik bo'yicha (1883y), ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar ro'y bergan holatlarda (1884y), nogironlik va qarilik (1889y) bo'yicha davlat ta'minotini o'z ichiga oldi (**LAYG**)¹.

Evropa Ittifoqi a'zolari tomonidan 1989 yilda qabul qilingan Evropa Ijtimoiy Xartiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu hujjatda ishlovchi fuqarolar hamda ishlamaydigan fuqarolarning olishga haqli bo'lgan ijtimoiy yordam yuzasidan asosiy huquqlari to'g'risida me'yorlar aks ettirilgan. Xartiyani imzolagan tomonlar ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarni tuzish orqali ishchilar bitta mamlakatdan boshqasiga migratsiya qilgan taqdirda har bir tomon fuqarolari uchun ijtimoiy ta'minot sohasida tenglikni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oldilar.

¹Qarang. Reichsgesetz betreffend die Invaldits und Alterssicherung vom 22.06.1889-(LAYG). Nogironlik holatida va qarilik bo'yicha ta'minotga oid Reyx Qonuni. Qonunda agar ishchi nogiron bo'lib qolsa yoki qarisa, pensiyaga da'vogarlik qilish huquqini berish ko'zda tutilgan.

Davlat pensiya va nafaqa ta'minoti majburiy davlat ijtimoiy sug'urta badallarini hisobidan aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga pulli to'lovlar vositasida ko'rsatiladigan yordamdir, bu yordam ularning zarur turmush darajasini kafolatlaydi. Bu to'lovlar ish beruvchilar va ishlovchilarning sug'urta badallari davlat tomonidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobidan moliyalashtiriladi. Dastlabki tizim - birdamlik, jamoa sug'urta tizimi - subsidiyalash, shaxsiy sug'urta tizimi - mutanosiblik tamoyillariga asoslangan. Avlodlar birdamligi tamoyili, yordamni muxtojlik darajasiga qarab, fuqaro to'lagan soliqlar va sug'urta badallari miqdorini hisobga olmasdan taqsimlanishni ko'zda tutadi. "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti tizimi aholining kam ta'minlangan, nogiron, qarib qolganlarning turmush darajasini yaxshilash va pasayishini oldini olish borasida doimiy ravishda ish olib borish va sug'urta tizimlarini rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltirdi"¹.

Davlat moliyasi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini bajarish uchun pul mablag'lari bilan ta'minlashga qaratilgan moliya tizimining muhim bo'g'inidir. Davlat moliyasi tarkibiga quyidagilar kiradi: Davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg'armalar, davlat kreditlari, davlat korxonalari moliyasi. Davlat moliyasining sanab o'tilgan turli xildagi bo'g'inlari bo'yicha davlat iqtisodiy va ijtimoiy jamg'armalarning tarmoq va hududiy muammolarning echimlarini keng miqiyosida hal etadi.

Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida maqsadli jamg'armalar alohida o'rin tutadi. Ularda jamlanadigan mablag'lar hajmi yuqori bo'lib, masalan, Frantsiyada maxsus fondlarning miqdori mamlakatning davlat budjetiga yaqin. Yaponiyada davlat xarajatlarining yarmidan ko'pi ana shunday jamg'armalar hisobidan moliyalashtirilsa, Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich budjetning uchdan bir qismini tashkil etadi. Albatta, bu fondlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Davlat bu fondlarning mablag'lari bilan ishlab chiqarish

¹Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Adolat". 2009. -B.66.

jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga asosan kambag'allik va aholi o'rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish maqsadida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha davlat pensiya tizimi ijtimoiy siyosat orqali yuritiladi. Keng ma'noda "ijtimoiy siyosat" deganda shaxsning hayot faoliyatini shunday sharoitini yaratish bo'yicha ko'rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi. U o'z navbatida shaxsning rivojlanishiga yordam beradi va uning ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradi.

"Rossiya iqtisodiyotida turli xil fondlar mavjud. Ulardan asosiysi maqsadli budjet fondlari va budjetdan tashqari fondlardir. Aytish mumkinki, maqsadli fondlar davlatning markazlashgan pul jamg'armalari-budjetdan ilgari shakllangan. Maqsadli fondlarning tashkil topishi to'g'risida shuni aytish mumkinki, maqsadli fondlar moliyaning tarkibiy qismi hisoblanadi, davlat tomonidan maqsadi va ijtimoiy vazifalari aniqlangan, tijorat asosida faoliyat ko'rsatmaydigan, umumdavlat manfaatlarini amalga oshirish uchun to'plangan moliyaviy resurslar yig'indisidir"¹.

Ijtimoiy jamg'armalar – aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan resurslardir. Ushbu fondlarning kengayish zaruriyati ishlab chiqarishning rivojlanishi, yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchilarning soni, ilmiy-texnik rivojlanish bilan vujudga kelgan jamiyatning turli guruhlar qarashlari orasidagi farqning va mamlakat aholisining yosh darajasi ortishi natijasida vujudga keldi. Oxirgi o'n yillikda sanoati rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy jamg'armalari hajmi absolyut miqdorda 5-6 barobarga ortdi.

Ijtimoiy fondlar hajmining ortishi ijtimoiy to'lovlarni oshirish imkonini berdi. Sug'urtalanuvchilarning sug'urta badallari, tadbirkorlarning sug'urta badallari va davlat subsidiyalari hisobidan jamg'arma tashkil topadi. Sug'urtalanuvchilarning badallari bevosita ularning foydasidan ajratiladi va

¹Karchevskiy V.V., Androsova L.D., Okuneva L.P., Smirnova E.E. Tselevie byudjetnie i vnebyudjetnie fondi. Uchebnoe posobie. – M.: "Vuzovskiy uchebnyk". 2011. –B.5.

mohiyatiga ko'ra, to'g'ri maqsadli soliq hisoblanadi. Badal stavkalari ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda daromad hajmidan qat'iy nazar, ma'lum foizlarda belgilanadi va bu yillik maksimal badal summasi yoki maksimal daromad stavkasini belgilashda inobatga olinadi. Sug'urtalanuvchilar va tadbirkorlar uchun esa sug'urta stavkalari amal qiladi. Ayrim davlatlarda (Germaniya) stavkalar ikkala guruh to'lovchilari uchun bir xil bo'lsa, boshqa bir mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Frantsiya) stavkalar turlicha bo'ladi. Ko'p davlatlarda sug'urtalanuvchilar uchun stavkalar daromadiga ko'ra foiz hisobida belgilanadi, tadbirkorlar uchun esa jami ish haqi jamg'armasiga emas, balki oldindan belgilab qo'yilgan jami maksimal ish haqiga qarab belgilanadi va maksimal hajmdan oshgan summa hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham kompaniyada malakali mutaxassislar ulushining ko'pligi ular ish haqining ijtimoiy jamg'armalarga shunchalik kam pul mablag'lari o'tkazishiga olib keladi. Germaniyadagi ijtimoiy sug'urta fondi tarkibida juda ko'p avtonom fondlar bo'lib, ular ijtimoiy sug'urtaning alohida turlarini qamrab oladi. «Ishchi va xizmatchilarning pensiya fondi», «Bemorligi uchun sug'urta fondi», «Ishsizlikdan sug'urtalash fondi». Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy fond mavjud: «Milliy sug'urtalash fondi» va «Davlat tashkilotlarining pensiya fondi».

Yaponiyada budjetdan tashqari fondlarning faoliyati - milliy daromadni davlat tomonidan aholining ma'lum ijtimoiy guruhlari foydasiga qayta taqsimlash usulidir. Yaponiyada quyidagi budjetdan tashqari fondlar faoliyat ko'rsatadi: «Sog'liqni saqlashni sug'urtalash fondi», «Milliy pensiya fondi», «Ishlab chiqarishda ko'rilgan zararni sug'urtalash fondi», «Ishsizlikni sug'urtalash fondi».

Jahon tajribasida budjetdan tashqari fondlarning juda ko'p turlari mavjud, lekin bu fondlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Ijtimoiy yo'naltirilgan fondlar (pensiya fondlari, majburiy tibbiy sug'urta fondlari, davlat bandlik fondlari, ijtimoiy sug'urta fondlari, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash umummilliy fondlari va iqtisodiy fondlar.

Rossiya Federatsiyasi o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilgan bo'lib, davlatning asosiy vazifasi ijtimoiy huquqlarni ta'minlashdan iborat. Ijtimoiy kafolatlar negizida butun mamlakat hududida yagona ijtimoiy standartga rioya etish, hududlarni yagona qoidalar bo'yicha moliyaviy ta'minlash tamoyili yotadi. «Budjetdan tashqari fondlar yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- ↳ moliyalashtirish, subsidiyalash, davlat korxonalarini kreditlash orqali ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatish;
- ↳ atrof-muhitni ifloslantirgani uchun to'langan soliq va jarimalardan tabiatni muhofaza etish tadbirlarini o'tkazish;
- ↳ aholiga nafaqa, pensiyalar, subsidiyalar berish orqali ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- ↳ chet el mamlakatlariga qarzlar berish»¹.

Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyasiga muvofiq, budjetdan tashqari maqsadli fondlar ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun negiz yaratadi. «Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot bo'yicha – yoshga doir nafaqa, nogironlik, boquvchisini yo'qotish, bola tug'ish va boqish, ishsizlik, shuningdek, bepul tibbiy xizmat kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda nafaqat budjet mablag'laridan, balki, budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'laridan foydalaniladi»².

Iqtisodiyoti ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan ko'pchilik mamlakatlar qonunchiligida kafolatlangan eng kam daromad (nafaqa to'lovi) to'g'risida qonun mavjud. Daniya bunday qonunni 1933 yilda, Buyuk Britaniya — 1948 yilda, GFR — 1961 yilda, Gollandiya — 1963 yilda, Belgiya — 1974 yilda, Irlandiya — 1977 yilda, Shvetsiya — 1982 yilda, Lyuksemburg — 1986 yilda, Frantsiya — 1988 yilda qabul qilgan. Xalqaro me'yorlarga binoan bunday qonun ma'lum mamlakatda tug'ilgandan yashovchi aholigagina emas, balki muayyan vaqt davomida bu erda yashovchi chet elliklarga har joriy etiladi.

¹ Kadomtseva S.V. Ekonomicheskie osnovi sistemi sotsialnoy zashiti. Monografiya. -Moskva.: 2007. –S. 24.

²Kadomtseva S.V. Gosudarstvennie finansi. Uchebnoe posobie.- M.: «INFRA -M». 2010. –B. 78.

AQShda 2006 yili pensiya ta'minoti to'g'risidagi yangi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun Amerika Qo'shma Shtatlarning pensiya tizimi uchun oxirgi o'ttiz yilda qabul qilingan eng ilg'or, inqilob ahamiyatidagi yangilik bo'ldi. Uning yordamida AQSh hukumati keyingi o'n yillikdayoq qashshoq qariyalarning ulkan armiyasi paydo bo'lishi xavfidan holi bo'lishga umid bog'ladi. Eng avval qonun bo'lajak pensionerlarni ular ishlayotgan kompaniyalarning kasod bo'lishi xavfidan holi qilish maqsadi yo'lida xizmat qilishi lozim. Masalan, o'z ishchi-xodimlariga belgilangan pensiya ta'minotini va'da qilayotgan ish beruvchilar, va'da qilingan pensiyani 100%igacha zahira qilib qo'yishlari kerak. Endi ish beruvchilarga o'z xodimlarini o'z kompaniyalarining aktsiyalariga pensiya jamg'armalarini sarmoyalashga majbur etish ta'qiqlanadi.

Qayd etish lozimki, jahon amaliyotida nogironlik faqat ikki toifaga bo'linadi – mehnatga umuman layoqatsizlik va mehnatga qisman layoqatsizlik. Avstriya, Belgiya, Daniya, Italiya, Kanada, Norvegiya, Portugaliya va Frantsiya kabi davlatlarda mehnatga layoqatlilik sezilarli darajada pasaymagan holatlarda, asosiy e'tibor nogironlarning jamiyatda to'laqonli reabilitatsiya qilinishini, masalan, davolanashini rag'batlantirishga qaratiladi. Bunda umumiy kasalliklar tufayli nogironlik bo'yicha pensiya to'lanishi nazarda tutilmaydi. Pensiya mehnat qobiliyati 50-70 foiz va undan ko'proq cheklangan hollarda to'lanadi. Jahonning aksariyat davlatlarida qo'llanilayotgan bunday talab va normalar mamlakatimizda amalda bo'lgan tasniflash bo'yicha nogironlikning I va II guruhlariga to'g'ri keladi.

MDX ning mamlakatlarida pensiya ta'minoti sohasida belgilangan va o'tkazilayotgan islohotlar xususiyatiga ko'ra ular uchun umumiy bo'lgan quyidagi yo'nalishlar aniqlandi:

- ❖ jamg'arish elementlarini asta-sekin kengaytirish va qo'shimcha kasbiy majburiy yoki ixtiyoriy nodavlat tizimlarini kiritgan holda muayyan to'lovli birdamlik tizimini saqlab qolish. Bu MDX ning pensiya tizimlarining asosini davlat pensiya ta'minoti va davlat pensiya sug'urtasi tashkil etadigan aksariat davlatlar uchun xosdir;

❖ jamg'arish printsiplarida qurilgan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish.


Belarussiya Respublikasida «Pensiya ta'minotini isloh qilish Kontsepsiyasi» 1997 yilda hukumat tomonidan ma'qullandi. «Davlat pensiya sug'urtasi va davlat sug'urta pensiyalari to'g'risida»gi qonun qabul qilingan. Kontsepsiyaga ko'ra pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish va uning faoliyat ko'rsatishi uchun sug'urtalangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni yakka (shaxsiy) tartibda hisobga olish amaliyoti asos bo'ladi. Ish beruvchilar, sug'urtalangan shaxslar va uni amalga kiritish bo'yicha ijtimoiy himoya jamg'armasi organlarining o'zaro munosabatlariga doir masalalar Belarussiya Respublikasining 1999 yil 6 yanvardagi «Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimida yakka (shaxsiy) tartibda hisobga olish to'g'risida»gi Qonunda tartibga solingan. Yakka tartibda hisobga olish tizimining maqsadi quyidagilardan iborat:

- ❖ ish staji va ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar haqkoniyligini ta'minlash;
- ❖ pensiyalar har bir fuqaroga uning butun mehnat faoliyati davomida qilgan mehnat natijalariga muvofiq tayinlashini uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ❖ davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimidagi xarajatlarni prognozlashtirish uchun axborot ta'minotini tashkil etish.

Pensiya to'lovlari barqaror moliyalashtirilishini ta'minlashga alohida e'tibor beriladi. Respublikada amal qilayotgan qonunlarga sug'urta qilinuvchilar va xizmat ko'rsatuvchi banklarga nisbatan ular tomonidan yo'l qo'yilgan sug'urta badallarini to'lash va o'tkazish qoidalarini buzish holatlari uchun penya va moliyaviy jarimalar ko'rinishidagi qat'iy jazolar tizimi belgilangan. Buning ustiga aybdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish tizimi mavjud.

Pensiya tizimini isloh qilish davomida badallar summasi dastlab birdamlik tizimini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Keyinchalik pensiyalarni hisoblash formulasida uning birdamlik va jamg'arish tarkibiy qismlarni tenglashtirgan holda shartli jamg'arish elementi ahamiyatini ko'paytirish belgilangan. Ixtiyoriy pensiya sug'urtasi qo'shimcha pensiya sug'urtasi tizimining vazifalarini bajarishi kerak. Mamlakatda islohotlarni o'tkazish natijasida pensiya tizimining tuzilmasi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

davlat pensiya ta'minoti; majburiy pensiya sug'urtasi; ixtiyoriy pensiya sug'urtasi.



3.1.1.-rasm. Xorijiy davlatlarda pensiya tizimi tuzilmasi¹.

Qirg'iston Respublikasi tomonidan tanlangan ijtimoiy pensiya sug'urtasi modeli uch darajadan iborat:

- ❑ davlat tomonidan pensiyaning barcha turlari uchun qat'iy belgilangan miqdordagi eng kam pensiya to'lovi kafolatlanishi;
- ❑ shaxsiy tartibda hisobga olish tizimi joriy etilgunga qadar o'rtacha ish haqi va ish stajini hisobga oladigan qismi;
- ❑ sug'urtalangan shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlarida to'plangan sug'urta baddallari summalaridan to'lov.

Shunga monand pensiyalarni hisoblashda yangi to'langan badallar summasi va taxminiy o'rtacha umr ko'rish muddatidan hisoblab chiqish tartibi amalga kiritildi. Pensiya miqdori qat'iy belgilangan tayanch pensiya

¹ Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Adolat”. 2009. –B.132.

hamda, shaxsiy hisobga olish tartibi joriy etilishiga qadar sug'urtalanuvchilarning ish staji va ish haqini, shaxsiy hisobga olish tartibi joriy etilganidan so'ng esa sug'urta hisobvaraqlarida to'plangan badal summasini hisobga oladigan sug'urta qismlar, oxirgi besh yildagi o'rtacha umr davomi bo'yicha demokrafik ma'lumotlar asosida pensiyaga chiqish yoshiga qarab har yili belgilanadigan koeffitsentlarning jamlamasi sifatida hisoblab chiqiladi.

Rossiya Federatsiyasining «Rossiya Federatsiyasida davlat pensiya ta'minoti to'g'risida», «Rossiya Federatsiyasida mehnat pensiyalari to'g'risida», «Rossiya Federatsiyasida majburiy pensiya sug'urtasi to'g'risida»gi qonun hujjatlari qabul qilindi. Mehnat pensiyalarining quyidagi turlari mavjud: yoshga doir, nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya.

Yoshga doir pensiya kamida 5 yillik ish staji mavjudligida tayinlanadi. Mehnat pensiyasi tayanch qismining to'lovi Federal budgetga o'tkaziladigan yagona ijtimoiy badal summalari hisobidan moliyalashtiriladi, sug'urta va jamg'arilgan qismlari esa Rossiya Federatsiyasi Pensiya jamg'armasining mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Bunda mehnat pensiyasi jamg'arilgan qismining to'lovi sug'urtalangan shaxsning yakka tartibdagi shaxsiy hisobvarag'ini maxsus qismida hisobga olingan pensiya jamg'arma summalari hisobidan, ko'rsatilgan mablag'lar doirasida moliyalashtiriladi. Qarilik pensiyasining miqdori pensiyaning tayanch, sug'urta va jamg'arilgan qismini jamlash orqali belgilanadi. Iste'mol tovarlari va xizmatlarning narxi oshgan taqdirda mehnat pensiyasida tayanch qismining miqdori Federal byujetga tegishli yilga ko'rsatilgan maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida indeksatsiya qilinadi. Mehnat pensiyasida sug'urta qismining miqdori yilda bir marta mamlakatda oldingi yil davomida o'rtacha ish haqining o'sish darajasini hisobga olgan holda yil boshidan indeksatsiyalanadi. Mehnat pensiyasida jamg'arilgan qismining miqdori 12 oyga belgilanadi va shu davr davomida qayta hisoblanmaydi.

3.2.O'zbekistonda pensiya tizimini huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari

Sobiq ittifoq davrida pensiya miqdoriga uzluksiz ish staji ta'sir qildi. O'zbekiston Respublikasining pensiya to'g'risidagi qonun hujjatlarida "uzluksiz ish staji" degan tushuncha mavjud emas. Bir korxonadagi uzluksiz ish staji yoki shunchaki uzluksiz ish staji pensiya ta'minoti darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Belgilangan pensiya yoshiga etish va aniq muddat ish staji mavjudligi pensiya ta'minotining huquqiy mezonlari hisoblanadi. Shu bilan birga, fuqaroning pensiya miqdori ish stajiga bog'liq. Biroq yuqorida aytib o'tilganidek, ish stajiga bir yoki bir necha korxonalarda erishilganligi muhim emas, chunki ish staji pensiya tayinlashda turli ish beruvchi korxonalar va (yoki) ish staji hisobiga olinadigan boshqa faoliyat turlari (o'qish, harbiy xizmat davri va hokazolar)da o'tgan mehnat davrlarini qo'shish yo'li bilan hisoblanadi

Bizning fikrimizcha, hozirda ham pensiya miqdorini aniqlayotganda uzluksiz ish staji hisobga olinishi va shu bilan birga mehnat daftarchasida yozilgan buyruqlar asosida pensiya hisoblanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sobiq ittifoq davrida ishlab pensiya tayinlangan pensionerlarning pensiyasini hozirgi kunda qaytadan hisob-kitob qilinadi, pensiya miqdori kamaytiriladi. Bizning fikrimizcha, Sobiq ittifoq davrida ishlab pensiya tayinlangan pensionerlarning pensiyasini uzgarishsiz qolishini taklif qilaman. Jami pensionerlar ichida yolg'iz kun kechirayotgan pensionerlar ham bor, ularning aksariyati ko'p qavatli binolarda istiqomat qiladilar. Pensionerlarning shu pensiyadan kvartira uchun to'lovlarni amalga oshiriladi, qolgan qismini zarur ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash maqsadida, 1993 yilda qabul qilingan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu Qonunga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi pensioner va nogironlarning turmush

darajasi hamda faravonligini oshirishga, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu Qonunga 2011 yil 1 yanvardan tegishli o'zgartirishlar kiritilib, o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim imtiyozlar va mehnat faoliyatining alohida davrlarini ish stajiga hisoblash mexanizmlari optimallashtirildi hamda endilikda yoshga doir pensiyalarni tayinlashda mehnat stajining quyi chegarasi belgilandi.

Shuningdek, 2012 yil 6 yanvardan kuchga kirgan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalarda ijtimoiy mo'ljalning universalligi tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, fuqarolar pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'tgan yillardagi ish haqini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibga asosan qayta hisoblashning amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Qonunchilikdagi mazkur o'zgarishlarning izchil ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Pensiya tayinlash va to'lash jarayonini tartibga soluvchi yagona Nizom — Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi 252-sonli «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori amaliyotga joriy etildi. Shu bilan birga, pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartib qoidalari hamda pensiya qonunchiligiga oid bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib amaliyotga keng joriy etilishi, pensiya tizimi faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada mustahkamlamoqda.

Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, bu islohotlarni respublikamizda boshqa islohotlar bilan jumladan, mehnat bozoridagi islohotlar, soliq tizimidagi islohotlar, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo'yicha o'zgarishlarni amalga oshirishda, milliy urf-odatlar,

oilalarga, qariyalarga yordam e'tiborga olinishi kerak, pensiya tizimini moliyalashtirishda davlat budjetidan moliyalashtirish saqlanib qolinishi lozim.

Pensiya ta'minotiga 1962 yil 29 sentyabrda tug'ilgan fuqaro 1984-2001 yillarda 14 yil mobaynida Yadro fizikasi institutida yadro reaktorida mehnat qilganligi, hozir "Fizika-Kuyosh" IChBda ishlayotganligi, imtiyozli nafaqaga chiqish maqsadida 2012 yil noyabr oyida Yunusobod tumaniga murojaat qildi. Inspektor xodim tomonidan pensiya tayinlanishi uchun taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati berilgan. Yuqorida so'ralgan hujjatlarni to'plab, 2013 yil fevral oyida taqdim qilgan. Inspektor xodim esa ish joyi atestatsiyadan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotnoma talab kildi. Yadro fizikasi instituti ma'muriyati ish joyini atestatsiyadan o'tkazishni 2004 yildan boshlaganligini ta'kidladi. Fuqaro ishlagan vaqtda barcha xodimlar tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi va ish joyini radiatsion nazorati olib borilishi to'g'risida inspektorga ma'lumot berganida u faqat ish joyini atestatsiyadan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot talab kilgan. Fuqaro o'z huquqi bo'yicha imtiyozli nafaqaga chiqishga haqli, lekin Yadro fizikasi instituti ish joyini o'z vaqtida atestatsiyadan o'tkazmagan. Biz bunday hollarda mehnat daftarchasi bo'yicha ish staji va imtiyozlarni inobatga olgan holda nafaqa belgilanishini taklif etamiz.

Kelgusida respublikamizda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari bazasini kengaytirishni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ↳ Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash ob'ektiga korxonalar faoliyatidan olingan boshqa daromadlar ham kiritilishi lozim;
- ↳ ilg'or xorij tajribasini respublikamizda qo'llash maqsadida aholi turmush darajasi hamda daromadlarining oshayotganligini hisobga olib, ijtimoiy to'lovlar yukini ish beruvchi zimmasidan ishchi va xodimlar zimmasiga

qisman bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni, amaldagi 90:10 nisbatdan istiqbolda 70:30 nisbatga utish mumkin;

- ↪ “Avlodlar birdamligi” pensiya tizimidan bosqichma-bosqich jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tish siyosatini maqsadga muvofiq ravishda, izchillik bilan amalga oshirish zarur. Buning natijasida Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy to'lovlar bo'yicha ish beruvchi tadbirkorlik sub'ektlari zimmasidagi yukni kamaytirish va ularning investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi;
- ↪ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning 60-moddasida qariyalar va nogironlar internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg'iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi to'lanadi, deb ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, “Qariyalar va nogironlar internat uylarida yashovchi shaxslarga pensiyalar to'lash to'g'risida”gi 60-moddani yanada aniqlashtirish kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining VII BOB. Pensiyalar tayinlash. “Pensiya uchun murojaat etilgan kun” ko'rsatilgan 46-moddada taqdimnoma yoki ariza barcha zarur hujjatlar bilan qabul qilib olingan kun pensiya uchun murojaat etilgan kun deb hisoblanadi. Taqdimnomaga yoki arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limi korxonalar, tashkilot ma'muriyatiga yoki arizachiga qo'shimcha ravishda qaysi hujjatlar taqdim etilishi kerakligi haqida xabar qiladi. Basharti, ular qo'shimcha hujjatlar taqdim etilishi zarurligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran uch oy ichida taqdim etilsa, unda pensiya tayinlanishi to'g'risidagi taqdimnoma yoki ariza qabul qilingan kun pensiya tayinlanishi uchun murojaat etilgan kun deb hisoblanadi. Mazkur muddat Belarussiyada bir oy, Rossiya Federatsiyasida uch

oy belgilangan. Bizning fikrimizcha, uch oy muddatni bir oy muddat bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Pensiyalar tayinlanish muddatlari» ko'rsatilgan 47-moddaning a) bandida yoshga doir pensiya — agar pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab uch oy ichida uni so'rab murojaat etilgan bo'lsa, pensiya yoshiga to'lgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi, deyilgan. Mazkur muddat Rossiya Federatsiyasida 1 oy belgilangan, boshqa MDX davlatlarida bu muddat ko'rsatilmagan. Bizning fikrimizcha, uch oy muddatni ikki oy muddat bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Pensiyalarni qayta hisoblash shartlari» ko'rsatilgan 49-moddada ko'rsatilishicha, pensiyalarni qayta hisoblash: pensioner pensiya miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo'lgan ish staji va ish haqi to'g'risidagi hamda boshqa) qo'shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda; nogironlik guruhi o'zgarganda; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oladigan oila a'zolari soni o'zgarganda; eng kam oylik ish haqi miqdorlari o'zgargan taqdirda; daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi. Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana shunday huquq paydo bo'lganidan keyin istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin. Fikrimizcha, mazkur moddaga pensiyani qayta hisoblash muddatni ko'rsatish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining 55-moddasida “Nogironlik davrida tanaffuslar bo'lganda pensiya to'lashni qayta davom ettirish shartlari” berilgan. Agar nogiron uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda qayta ko'rikdan o'tish uchun TMEKga bormagan bo'lsa, unga pensiya to'lash to'xtatib qo'yiladi, uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda to'xtatib qo'yilgan kundan, lekin ko'pi bilan o'tgan bir oydan boshlab pensiya to'lash davom ettiriladi. Uzrligababga ko'ra qayta ko'rikdan o'tish muddati o'tkazib yuborilganda, agar TMEK uni ana shu davrda nogiron bo'lgan deb topsa, pensiya to'lash to'lov to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab to qayta ko'rikdan o'tish kunigacha, lekin ko'pi bilan o'tgan uch yil uchun davom ettiriladi. Bunda nogiron qayta ko'rikdan o'tkazish chog'ida

nogironlikning boshqa guruhiga (yuqori yoki past guruhga) o'tkazilgan bo'lsa, pensiya ko'rsatib o'tilgan vaqt uchun avvalgi guruh bo'yicha to'lanadi.

Umumiy kasallik oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotgan nogironga mehnat qobiliyati tiklanganligi sababli pensiya to'lash to'xtatilgan yoki uzrsiz sabablarga ko'ra qayta ko'rikdan o'tishga kelmaganligi oqibatida to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda, agar pensiyani to'lash to'xtatilganidan keyin besh yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lsa, ilgari tayinlangan pensiyani to'lash nogironlik belgilangan kundan boshlab davom ettiriladi. Agar besh yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, pensiya yana umumiy asoslarda tayinlanadi.

“Uzrli sababga ko'ra qayta ko'rikdan o'tish muddati o'tkazib yuborilganda, agar TMEK uni ana shu davrda nogiron bo'lgan deb topsa, pensiya to'lash to'lov to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab to qayta ko'rikdan o'tish kunigacha, lekin ko'pi bilan o'tgan besh yil uchun davom ettiriladi” deb o'zgartirishni taklif etamiz.

III bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot ishi natijasida uchinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi:

1. Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, bu islohotlarni respublikamizda boshqa islohotlar bilan jumladan, mehnat bozoridagi islohotlar, soliq tizimidagi islohotlar, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo'yicha o'zgarishlarni amalga oshirishda, milliy urf-odatlar, oilalarga, qariyalarga yordam e'tiborga olinishi kerak, pensiya tizimini moliyalashtirishda davlat budjetidan moliyalashtirish saqlanib qolinishi lozim, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti va xususiy pensiyalar tizimi amaliyotga kiritilishi lozim.

2.Mamlakatda pensiya tizimini isloh qilishida eski pensiya tizimini yangi ijtimoiy va demografik sharoitga moslashtirishning turli usullari qo'llanilishi lozim. 1) pensiya ta'minoti asosan uchta bosqichda bo'ladi: majburiy, va ish beruvchi beradigan pensiya hamda shaxsiy pensiya; 2) davlat barcha turdagi pensiya ta'minotini me'yorga soladi va nazorat qiladi; 3) Ish beruvchi beradigan va shaxsiy pensiya olish usullari rag'batlantiriladi; 4) pensiya tizimi har bir fukaroga moslashtiriladi, pensiya sug'urta badallarining miqdori va qancha vaqt to'langaniga bog'liq bo'ladi. Pensiya tizimining farq qiladigan xususiyatlariga yana pensiya badallarini to'lash va taqsimlash, demografik muammolar (pensiya yoshining o'zgarishi,) va pensiya badallarini ko'paytirish muammolari hal qilinganini aytish mumkin.

3.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalarida tegishli bo'limlar tashkil qilindi. Ular tomonidan yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilishi to'g'riligini, shu jumladan fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig'majildida birlamchi hujjatlarning to'liqligi va ishonarliligini tekshirish yo'li bilan yoppasiga tekshiruvlar amalga oshiriladi. Ishlovchi pensionerlarga mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan pensiyalar hamda nafaqalarning hisoblab yozilishi va to'lanishi to'g'riligini reja asosida tekshiradi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarga pensiya va nafaqalar o'z vaqtida va to'liq to'lanishining tizimli monitoringini olib borish, qoidabuzarliklarga qarshi tegishli choralarni ko'rish imkonini beradi.

4.Xorijiy mamlakatlardagi pensiya ta'minoti tizimidagi tahlillardan ma'lum bo'ldiki, pensiya islohotlari uchta asosiy yo'nalishda o'tishi mumkin:

- a) jamg'arib boriladigan usulni joriy qilmasdan mavjud avlodlar birdamligi tamoyili asosida taqsimlash usulini yangilash;
- b) jamg'arib boriladigan usulga o'tib taqsimlash usuli samaradorligi oshirish;

c) jamg'arib boriladigan usul va taqsimlash usullarini uyg'unlashtirish.

5. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida yuridik shaxslar tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya majburiy badallarining to'g'ri, to'liq hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazib berilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

XULOSA

Hech shubhasiz, 2013 yil ham jamiyatimiz hayotidagi yangilanish jarayonlari va islohotlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishning mantiqiy davomi bo'lib, iqtisodiyotimizning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash yo'lida, eng muhimi, ijtimoiy ximoyani kuchaytirishga, pensiya ta'minoti tizimini yaxshilanishiga va xalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan ishlarda yangi va yuksak bosqich bo'ladi.

Biz tadqiqot ishi natijasida quyidagi xulosalar olindi.

1. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarni bajarishi uchun moliyaviy resurslar etarli bo'lishi kerak. Bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi, mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda ahamiyat kasb etadi. Xorijiy davlatlar istiqbolda pensiya tizimi barqarorligini yaxshilashga yo'naltirilgan o'zgarishlar qildilar.
2. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, oxirgi yillarda kuzatilayotgan YaIMning yuksak o'sish sur'atlari, makroiqtisodiy rivojlanish natijalari mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlanishining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakat fuqarolarining pensiyasini belgilovchi asosiy omil sifatida Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalaridagi pul mablag'lari e'tiborga olinadi. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakl-larni qo'llashni talab etdi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, davlatning maqsadli jamg'armalari tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan YaIMning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi.
3. Respublikamizda ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bir katorda,

2013 yilgi budjet siyosati kontseptsiyasida asosiy e'tibor budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirishga, aholini manzilli qo'llab-quvvatlashga va budjet tashkilotlari ishlovchilarini ish haqilari, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy to'lovlar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

4. Ijtimoiy himoyaning vazifasi pensiya ta'minotini amalga oshirish, mehnat jarayonida insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini muhofazalash imkonini beradigan turkum tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-tibbiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Hozirgi kunda pensiya va nafaqa tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarni iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi.
5. Davlat pensiya va nafaqa ta'minoti majburiy davlat ijtimoiy sug'urta badallarini hisobidan aholining himoyaga muxtoj qatlamlariga pulli to'lovlar vositasida ko'rsatiladigan yordamdir, bu yordam ularning turmush darajasini kafolatlaydi.
6. Xorijiy mamlakatlarida pensiya ta'minoti sohasida o'tkazilayotgan islohotlar xususiyatiga ko'ra ular uchun umumiy bo'lgan quyidagi yo'nalishlar aniqlandi:
 - jamg'arish elementlarini asta-sekin kengaytirish, ayollarni pensiyaga chikish yoshini oshirish va qo'shimcha kasbiy majburiy yoki ixtiyoriy nodavlat tizimlarini kiritish, birdamlik tizimini saqlab qolish. Bu pensiya tizimining asosini davlat pensiya ta'minoti va davlat pensiya sug'urtasi tashkil etadigan aksariat xorijiy davlatlar uchun xosdir;
 - jamg'arish printsiplarida qurilgan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish.

Takliflar.

1. Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy

- ajratmalarni hisoblash ob'ektiga korxonalar faoliyatidan olingan boshqa daromadlar ham kiritilishi lozim.
2. Ilg'or xorij tajribasini respublikamizda qo'llash maqsadida aholi turmush darajasi hamda daromadlarining oshayotganligini hisobga olib, ijtimoiy to'lovlar yukini ish beruvchi zimmasidan ishchi va xodimlar zimmasiga qisman bosqichma-bosqich o'tkazish, amaldagi nisbatdan istiqbolda 70:30 nisbatga o'tish mumkin.
 3. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning 60-moddasida qariyalar va nogironlar internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg'iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi to'lanadi, deb ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, "Qariyalar va nogironlar internat uylarida yashovchi shaxslarga pensiyalar to'lash to'g'risida"gi 60-moddani yanada aniqlashtirish kerak.
 4. Bizning fikrimizcha, hozirda ham pensiya miqdorini aniqlayotganda uzluksiz ish staji hisobga olinishi va shu bilan birga mehnat daftarchasida yozilgan buyruqlar asosida pensiya hisoblanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.
 5. Sobiq ittifoq davrida ishlab pensiya tayinlangan pensionerlarning pensiyasini hozirgi kunda qaytadan hisob-kitob qilinadi, pensiya miqdori kamaytiriladi. Bizning fikrimizcha, sobiq ittifoq davrida ishlab, pensiya tayinlangan pensionerlarning pensiyasini o'zgarishsiz qolishini taklif qilaman. Mazkur pensionerlar ichida yolg'iz kun kechirayotgan pensionerlar ham bor, ularning aksariyati ko'p qavatli binolarda istiqomat qiladilar.
 6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining VII BOB. Pensiyalar tayinlash. 46-modda va 47-moddaga o'zgartirish kiritish kerak.

7. «Pensiyalarni qayta hisoblash shartlari» ko'rsatilgan 49- moddada pensiyani qayta hisoblash muddatni ko'rsatish maqsadga muvofiq sanaladi.
8. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining 55-moddasida “Nogironlik davrida tanaffuslar bo'lganda pensiya to'lashni qayta davom ettirish shartlari” berilgan. “Uzrli sababga ko'ra qayta ko'rikdan o'tish muddati o'tkazib yuborilganda, agar TMEK uni ana shu davrda nogiron bo'lgan deb topsa, pensiya to'lash to'lov to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab to qayta ko'rikdan o'tish kunigacha, lekin ko'pi bilan o'tgan besh yil uchun davom ettiriladi” deb o'zgartirishni taklif etamiz.
9. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish darajasi 73 yil hisoblandi. Erkak kishi 60 yoshda pensiyaga chiqqanda – o'rtacha 13 yil pensiya oladi. Ayol kishi 54 yoshida pensiyaga chiqqanda – o'rtacha 18 yil pensiya oladi. Fuqarolar yoshga doir pensiya olish huquqiga ayollar 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston". 2008. -40 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuni. 2007 yil. 25 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni. 2000 yil. 14 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni. 2004 yil.26 avgust. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Q onuni. 2010 yil 26 noyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
7. «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish kiritish haqida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2012 yil 5 yanvar. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
8. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2010 yil 22 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari,farmonlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011yil 30 dekabrda
«O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi
1675-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda
«O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi
1887-son Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda
“Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-
tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19
fevralda “O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida
budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash
haqida”gi 30-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8
sentyabrda “Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada
takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huqukiy hujjat-larni
tasdiqlash to'g'risida”gi 252-son Qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

14. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: “O'zbekiston”.,
1999. -48b.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston
Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali
marosimdagi ma'ruzasi. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya
tizimini takomillashtirish — ustivor vazifa. //Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil,
8 dekabr.
16. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz

- farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O’zbekiston”. 2010. -80 b.
- 17.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: “O’zbekiston”. 2011. - 48 b.
- 18.Karimov I. A.“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. T.: “O’zbekiston”. 2012yil. -36 b.
- 19.Karimov I.A.“Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, xayotimizning yanada erkin va obod bo’lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir.\\ Xalq so’zi. 2012 yil. 8 dekabr.
- 20.Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\ Xalq so’zi. 2013 yil. 19 yanvar.

IV. Asosiy adabiyotlar.

- 21.Antropov V.V. Sotsialnaya zashita a stranax Evropeyskogo soyuza. Monografiya. -Moskva.: Izdatelstvo «Ekonomika».2006. 173str.
- 22.Karchevskiy V.V., Androsova L.D., Okuneva L.P., Smirnova E.E. Tselevie budjetnie i vnebudjetnie fondi. Uchebnoe posobie. – M.: “Vuzovskiy uchebnik”. 2011. -224 s.
- 23.Kadomtseva S.V. Ekonomicheskie osnovi sisitemi sotsialnoy zashiti. Monografiya. -Moskva.: 2007. 248str.
24. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg’armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. - T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.
- 25.Tursunov I., Shoyimxonov 3. Ijtimoiy ta’minot huquqi. Darslik. -T.: “TDYuI”. 2003.- 230 b.

26. Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.
27. Qosimova G.A. Ijtimoiy siyosatning yo'nalishlari. Monografiya. – T.: “Moliya”. 2012. -118 b.
28. Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 212 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar.

29. Bocharov V.V, Leontev V.E, Radkovskaya N.P. Finansi. Uchebnik.- SPb.: «Piter». 2009. -400 s.
30. Beknozov N.A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «TDIU». 2006. -552 b.
31. Vohobov A.V., Malikov T.S Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. -316 b.
32. Vohobov A.V, Qosimova G.A. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. -287b.
33. Vohobov A.V.. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. Monografiya. -T.: «Sharq». 2003. 320 b.
34. Voxabov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. Monografiya. -T.: «Moliya». 2002. –B. 293.
35. Williams M. Government: Cash Management Its Interaction with Other Financial Policies. International Monetary Fund Fiscal Affairs Department Technical Guidance Note. 2010. -201 p.
36. Kadomtseva S.V. Gosudarstvennie finansi. Uchebnoe posobie.- M.: «INFRA -M». 2010. -352 s.
37. Malikov T.S., Xaydarov X.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. -556 b.
38. Malikov T.S., Vahobov D. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 660 b.

- 39.Mexmonov. S.U. Budjet xisobi. O'kuv ko'llanma. - T.: "Fan va texnologiya". 2012. - 352 s.
- 40.Neshchitoy A.S. Budjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya "Dashkov i K". 2012. - 336 s
- 41.Polyak G.B. Gosudarstvennie i munitsipalnie finansi. Uchebnoe posobie.- M.: «YuNITI-DANA». 2008. -375 s.
- 42.Polyak G.B. Budjetnaya sistema Rossii. Uchebnik.- M.: «YuNITI-DANA». 2011. -703 s.
- 43.Polyak G.B. Finansi budjetnix organizatsiy. Uchebnik.- M.: «YuNITI-DANA». 2011. -463 s.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlarva, dissertatsiya avtoreferatlari.

- 44.Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent. 2012. -№6. – B.8-12.
- 45.Alimova G. Ijtimoiy sug'urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6. – B.10-12.
- 46.Axmedjanov A. Gosudarstvennie rasxodi: uvelichivat ili sokrashchat? // Ekonomicheskoe obozrenie. –Tashkent.2009. № 10.15-17 s.
- 47.Vaxabov A. Aholi turmush darajasini oshirishning kontseptual jihatlari. Iqtisodiyotni modernzatsiyalash sharoitida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. –T.6: 2011. 4-8b.
- 48.Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4.– B. 21-27.
- 49.Vaxabov D.R. Jahon pensiya tizimining asosiy yo'nalishlari // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyatni investitsiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislar to'plami.– Toshkent, 2010. – B. 241-244.

50. Rustamov E. Otsenka urovnya jizni naseleniya. // Iqtisodiyot va ta'lim. - Toshkent. 2011. -№2. – B. 9-12.
51. Raxmonov D A. “Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish” uslubini qo'llash orqali sog'liqni saklash tizimida mablag'larni samarali boshqarish. // Moliya. -Toshkent. 2011. -№1. – B. 41-47.
52. Xaydarov M. Davlat budjetining asosiy parametrlari obod turmush yilini ta'minlash omili sifatida. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№1. – B. 6-9.
53. Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2012. -№12. – B. 51-56.
54. O'zbekiston Respublikasi aholi farovonligini oshirish loyihasining 2008-2010 yillarda to'liq hujjati. –T.: 2007. 112 b.
55. O'zbekiston Respublikasini 2013 yilning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida. \ -T.: Ma'rifat. 2013. 1 may. 35 (8580)-son.
56. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. Statistik to'plam – T.: «O'zbekiston». 2011. – 140 b.

VII. Internet-sayti ma'lumotlari

www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

www.treasury.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi.

www.gov.uz O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali.

www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

www.stat.uz O'zbekiston respublikasi Davlat Statistikasi Qo'mitasi.

<http://www.soliq.uz/uz> O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq Qo'mitasi.


1-ilova.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining 2007-2013 yillardagi tarkibi¹

(foizda)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar						
		2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
	Davlat budjeti xarajatlar jami (maqsadli jamg'armalarsiz)	100	100	100	100	100	100	100
1	Ijtimoiy-madaniy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari	54,1	53,6	56,5	59,1	59,5	59,5	59,2
2	Budjetdan tashkari Pensiya fondiga dotatsiyalar	0,8	0,8	-	-	-	-	-
3	Fuqarolar jamiyatini rivojlantirish mablag'lari va grantlari	0,04	0,04	0,03	0,05	0,02	0,02	0,02
4	Iqtisodiyot xarajatlari	12,1	12,5	11,9	11,5	11,4	11,0	11,0
5	Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	8,6	7,9	7,5	4,0	5,5	5,0	5,0
6	Davlat hokimiyati, boshqaruv sud va prokratura organlarini saqlash xarajatlari	2,2	2,5	2,4	2,1	2,8	3,0	3,1
7	Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	0,7	0,8	0,7	0,9	0,9	0,8	1,1
8	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining zaxira jamg'armasi	0,4	0,4	0,3	0,4	0,3	3,0	3,2
9	Boshqa xarajatlar	21,06	21,46	20,67	21,95	19,58	22,05	17,38

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining ma'lumotlari.



2-ilova. Pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari¹

¹ Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti qonunchiligi asosida tayyorlandi